

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JURAYEV JAMOLIDDIN AMINDJANOVICH

**HAYDAR XORAZMIYNING “GULSHAN UL-ASROR” ASARI MATNIY-
QIYOSIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc) on philological
sciences**

Jurayev Jamoliddin Amindjanovich

Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari matniy-qiyosiy tadqiqi 3

Джуряев Джамолиддин Аминджанович

Текстологическо-сравнительное исследование произведения Хайдара
Хорезми “Гульшан аль-асрар” 31

Djuraev Djamoliddin Amindjanovich

Textual and comparative study of the work of Haydar Khorezmi “Gulshan al-
asrar” 63

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 69

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

JURAYEV JAMOLIDDIN AMINDJANOVICH

**HAYDAR XORAZMIYNING “GULSHAN UL-ASROR” ASARI MATNIY-
QIYOSIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil808 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich
filologiya fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar:

Shodmonov Nafas Namozovich
filologiya fanlari doktori, professor

Sodiqov Qosimjon Pozilovich
filologiya fanlari doktori, professor

Islomov Zohidjon Mahmudovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "26" 05 soat 10^o dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (357 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "6" 05 da tanqatildi.
(2025 yil 6.05 dagi 1 raqamli reyting ommosasi).



H.A. Dadaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol. f. d., professor

Q.U. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol. f. d., professor

R.F. Zohidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
filol. f. d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotini ko'rsatishga bag'ishlangan tadqiqotlarda toshbitik, qo'lyozma va xalq og'zaki ijodi namunalari kabi manbalarning ilmiy qimmati va ahamiyati beqiyosdir. Biror bir xalq badiiy tafakkur mahsulining insoniyat ma'naviy olamini yuksaltirishdagi o'rni o'sha xalq qoldirgan adabiy manbalarda umuminsoniy qadriyatlar, orzu-istaklar, adabiy ideallarning qay darajada aks etganligi bilan belgilanadi. Mazkur manbalarni alohida va kompleks tarzda tadqiq qilish matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasining muhim tamoyillaridan hisoblanadi.

Dunyo xalqlari ijtimoiy-ma'naviy hayotida yuz berayotgan madaniyatlararo muloqotlar jarayonida har bir xalq adabiyotining betakror jihatlari ilmiy dalillarga tayangan holda asoslashni taqazo qilmoqda. Chunonchi, adabiy obidalarining katalogi, monografik tavsifi va ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, faksimil nashrlarini amalga oshirish, qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tadqiq qilish mumtoz adabiy asarlarning mazmuni va badiiyati, ularda aks etgan muallif adabiy ideallarini anglash hamda tanishtirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillardagi yuz berayotgan islohotlar asosida dunyo fani, madaniyati va adabiyoti rivojiga munosib ulush qo'shgan ajdodlarning asarlari qo'lyozma manbalarini asrab-avaylash, ularni har tomonlama tadqiq qilish, ilmiy asoslangan xulosa hamda umumlashmalarni Respublika aholisi va dunyo afkor ommasiga ma'lum qilish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zero, "...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish"¹ muhim sanaladi. Shu ma'noda Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asarini matnshunoslik va qiyosiy-tipologik nuqtayi nazaridan tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2995-сонли қарори. "Қадимги ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" // Халқ сўзи. – 2017. – 25 май.

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Sharq xalqlari mumtoz adabiyotiga oid qo‘lyozma manbalar va ularning o‘ziga xosligini tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning qator yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Istanbul universiteti (Turkiya), Academy of Sciences of Afghanistan Institute of Languages and Literature Dari Department (Afg‘oniston), Indiana University of Bloomington (AQSh), The University of Toronto (Kanada), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Fransiyaning O‘rta Osiyoni o‘rganish instituti (IFEAC), Parijdagi Osiyo instituti (INALCO), Vengriya Fanlar akademiyasi, University of Bonn (Germaniya), O‘zRFA Sharqshunoslik instituti (O‘zbekiston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Jizzax davlat pedagogika universitetida olib borilmoqda.

Jahon adabiyotshunosligida “Gulshan ul-asror” asarining qo‘lyozmalari asosida nashrga tayyorlash ishlari birinchilardan bo‘lib yevropa olimlari tomonidan XIX asrdan o‘rganila boshlangan. Jumladan, 1857-yil I.N. Beryozin “Турецкая хрестоматия” (to‘plamida asarni “Отрывок из поэмы Мир Алишера Навои в петёрнице “مخزن الاسرار” – “Махзан ал-асрап”³ tarzida, 1858-yili Iosif Gotvald va 1882-yili A. Pave de Kurteyl asar muallifi kimligini ko‘rsatmay “Maxzan ul-asror” nomi bilan nashr qilgan⁴; 1963-yilda Arat Reshid Rahmatiyning “Bir Yazı Nümûnesi Münâsebeti ile”⁵ nomli maqolasida asarini “Maxzan ul-asror” nomi bilan keltirib, muallifi Mir Haydar Majzub degan qarashni bildiradi; 1988-yili Priscilla Soucek tomonidan Nyu-Yorkning Spenser majmuasi kutubxonasidagi 41-raqamli qo‘lyozmasi haqida ma’lumot beradi. Maqolada ushbu nusxaning tuzilishi, shakli, kotibi kabi jihatlariga e’tiborni qaratadi. Maqola muallifi asar nomini “Maxzan ul-asror”, muallifi Haydar Xorazmiy ekanligini ta’kidlaydi⁶. 2008-yil Avni Go‘zo‘tok ham “Haydar Tilbe Mahzenü'l-Esrâr” maqolasida asarni “Maxzan ul-asror” nomi bilan keltirib, muallifi Haydar Telba deydi va uning leksik xususiyatlari yuzasidan mulohazalarini bildiradi⁷; 2019-yil Serkan Çakmak bu asar muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi, uning turkiy-arabiy yozuvdagi nusxalari bilan birga uyg‘ur yozuvidagi, jami

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: www.bbaw.de, www.ku.dk, www.fu-berlin.de, www.uni-goettingen.de, www.britishmuseum.org, www.academia.edu, www.istanbul.edu.tr, www.spbu.ru, www.orientalstudies.ru, www.ivran.ru, www.bsu.edu.az saytlari va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

³ Берёзин И. Турецкая хрестоматия. – Казан: Печатано в типографии университета, 1857.

⁴ Maxzan ul-asror. Nashrga tayyorlovchi Iosif Gotvald. – Qozon, 1858; Courtaile A., Pavet de. Miradj-nameh. Le manuscrit Oigour de la Bibliothéque Nationale Paris, 1882. – P. 62–95.

⁵ Arat Reşit Rahmeti. Bir Yazı Nümûnesi Münâsebeti ile. İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi, XII, 1963. – S. 121–138.

⁶ Soucek, Priscilla. The New York Public Library “Makhzan al-asrâr” and Its Importance, *Ars Orientalis*. – Vol. 18, 1988. – P. 1–37.

⁷ Gözütok Avni. Haydar Tilbe Mahzenü'l-Esrâr. – Erzurum: Fenomen Yayınları, 2008.

o‘n uch nusxasi mavjudligi haqida ma‘lumot bergan⁸; 2000-yil Ayet Abdulaziz Xoja asarining Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi Ayosofiya bo‘limidagi Shayxzoda Abdurrazzoq Baxshi tomonidan uyg‘ur-arab yozuvida ko‘chirilgan 4757/II-raqami qo‘lyozma asosida nashrini amalga oshirdi. Shuningdek, nashr so‘zboshisida asarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan⁹; 2020-yil Benedek Péri “Gulshan ul-asror”ning Vengriya Fanlar akademiyasi kutubxonasidagi Perzsa O. 81-raqamli qo‘lyozma nusxasi haqida ma‘lumot beradi va Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”i deb nashr qildiradi¹⁰.

Dunyo sharqshunosligida o‘rta asrlar Sharq adabiyotshunosligida ijodkor mahoratini belgilash bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: o‘rta asrlar Sharq adabiyotshunosligining badiiyat mezonlari, turkiy adabiyotda she‘riy san‘atlar, ularning tiliga adabiyotshunoslik va tilshunoslikda yangicha qarashlar asosida baho berish; mumtoz adabiyotni o‘rganishda qadimiy qo‘lyozma asarlar va lug‘atlarning ahamiyati, asar qo‘lyozma nusxalarining matniiy-qiyyosiy tadqiqini amalga oshirish va tanqidiy matnini tuzish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rta asrlar adabiyoti, adabiyotshunosligi, adabiy jarayon, adabiy janrlar, ularning ifoda imkoniyati, xususan, masnaviy shaklidagi dostonchilik, unga yaqin bo‘lgan janr va san‘atlar o‘rtasidagi farqlar, Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari yuzasidan bildirilgan xulosalar I.N. Beryozin, A. Pavet de Kurteille, I. Gotvald, Blochet Edgard, Gustav Flyugel, Rieu Charles Pierre Henri, V. Minorskiy, M. Shayxzoda, H. Zarif, Arat Reshit Rahmeti, N.M. Mallayev, V. Abdullayev, B. Valixo‘jaev, Y. Bertels, A.M. Shcherbak, G.Y. Aliyev, A. Rustamov, A. Hayitmetov, E. Fozilov, Y. Is‘hoqov, Aysa Gul Sertkaya, Farhad Rahimi, Kamile Çetin, Muhammad Ali, B. Qosimov, R. Nurmatova, M. Matyoqubova, A. Hojiahmedov, Sh. Sirojiddinov, D. Quronov, N. Abdullayev, O. Jo‘rayev, M. Muhiddinov, Q. Sodiqov, Z. Islomov, A. Erkinov, E. Ochilov¹¹ kabi olimlarning tadqiqotlarida aks etgan. Biroq mazkur tadqiqotlarda

⁸ Serkan Çakmak. Mahzanul Asror'un Uygur harfli Ali Shah Bahshi'nin bir nusxasi. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi – Journal of Turkish Researches Institute. TAED-66, Eylül. – September. – Erzurum, 2019.

⁹ Ayet Abdulaziz Goca. Haydar tilbe‘nin Mahzenu‘l esrar mesnevisi. – Istanbul, 2000.

¹⁰ Benedek Péri. Haydar Hıvārizmī. Maḥzan al-asrār. – Library and Information Centre of the Hungarian Academy of Sciences, 2020.

¹¹ Flügel G. Die Arabischen Persischen und Türkischen Handschriften der Kaiserlich-Königlichen Hofbibliothek zu Wien Cilt I. Wien: Druck und Verlag der K. K. Hof-Und Staatsdruckerel, 1865; Rieu, Charles Pierre Henri. Catalogue of The Turkish Manuscripts in British Museum. – London: Gilberri and Rivington, Limited, St. John's Houer Clarkenwell Road, 1888; Blochet E. Bibliothèque Nationale Catalogue des Manuscrits Turcs II. Paris: Bibliothèque Nationale. 1933; Шайхзода М. Низомий Ганжавий // Шарқ юлдузи, 1947. – № 9 –Б. 56–68; Ҳоди Зариф. Навоий замондошлари. Терма шеърлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1948; Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М. – Л.: АН, 1962; Minorskiy Vladimir. The Chester Beatty Library A Catalogue of the Turkish. Manuscripts and Miniatures. – Dublin: Hodges figgis & CO. LTD, 1958; Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент, 1965; Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Фузули. – М., 1962; Абдуғафуров А. Ҳайдар Хоразмий ижодида сатира масаласига оид // Ўзбек тили ва адабиёти. –1963. – № 4 – Б. 26–32; Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М: Восточная литература, 1963; Валихўжаев Б. Ўзбек классик адабиётида эпик поэзиянинг тараққиёти тарихидан: Филол. фанлари д-ри. ... дисс. – Самарқанд, 1967; Эркинов С. Яна “Гул ва Наврўз”нинг муаллифи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1972. – № 2. – Б. 54–55; Рустамов А. Гулу Наврўзнинг муаллифи тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти. –1972. –№ 3. – Б. 41–44; Абдуғафуров А. Ҳайдар Хоразмий ижодида сатира масаласига оид // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1963. –№ 4. – Б. 26–32; Исҳоқов Ё. “Гул ва Наврўз” достонининг муаллифи масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1972, –№ 1. – Б. 47–68; Фозилов Э. Лутфийнинг “Гул ва Наврўзи” ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1972, –№ 4. – Б. 40–44; Абдуллаев Н. Ҳайдар Хоразмий ва унинг “Махзан ул-асрор” асари”. – Тошкент: Фан, 1976; Жўраев О. Ўзбек классик

Haydar Xorazmiy ijodiy merosining ko‘lami, “Gulshan ul-asror”ning yaratilish tarixini aniqlash, qo‘lyozmalari matnini qiyosiy o‘rganish, tafovutlarini ko‘rsatish, ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, “Maxzan ul-asror” turkumidagi asarlardan farqli jihatlarini belgilash va Sharq xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyoti tarixida tutgan o‘rnini dalillash nuqtayi nazaridan monografik tarzda tadqiq qilish bosh maqsad etib qo‘yilmagan.

Binobarin, ushbu tadqiqotning amalga oshirilishi shoir ijodiy merosining ko‘lami, “Gulshan ul-asror”ning yaratilish tarixini aniqlanish, qo‘lyozmalari matnini qiyosiy o‘rganish, tafovutlarini ko‘rsatish, ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, “Maxzan ul-asror” turkumidagi asarlardan farqli jihatlarining belgilanishi va Sharq xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyoti tarixida tutgan o‘rnini dalillash imkonini beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetining istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek adabiyoti, tanqidi tarixi va badiiy mahorat masalalari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Gulshan ul-asror” asarining matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish va Haydar Xorazmiyning boshqa asarlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Gulshan ul-asror”ning yaratilish tarixi, nomlanishi va muallifining boshqa asarlariga oid xulosalar bildirish;

“Gulshan ul-asror” qo‘lyozmalari hamda nashrlarini tadqiq etish orqali ulardagi matniy farqlarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash;

“Gulshan ul-asror” asaridagi Qur’oni Karimdan olingan oyatlar mazmunining asarga singdirilishi, she’riy san’atlar va ularda yuzaga kelgan farqlarni ko‘rsatish;

“Gulshan ul-asror” qo‘lyozmalariga ishlangan miniatyuralar hamda Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug‘atlarda doston matnidan berilgan parchalarning asar matni talqini va ilmiy-tanqidiy matnini yaratishdagi ahamiyatini belgilash;

“Maxzan ul-asror” turkumida yaratilgan masnaviylar va “Gulshan ul-asror”ning matniy qiyosini amalga oshirish;

“Gulshan ul-asror” asari ilmiy-tanqidiy matnini tuzish prinsiplarini ishlab chiqish va masnaviyning ilmiy-tanqidiy matni yaratish.

Tadqiqotning obyekt sifatida “Gulshan ul-asror”ning Fransiya milliy kutubxonasidagi 978, Eron milliy kutubxonasidagi 13524, Turkiyaning To‘pqopi saroyi kutubxonasidagi EH 1460, Sulaymoniya kutubxonasi As’ad afandi fondidagi

адабиётида фалсафий-дидактик дostonчилик. – Тошкент: Фан, 1985; Муҳаммад А., Қосимов Б., Нурматова Р. Навоийнинг нигоҳи тушган. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986; Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами в литературе народов востока. – М.: Наука, 1985; Аҳмадхўжаев Э. Алишер Навоийгача бўлган ўзбек шоирлари асарлари қўлёзмаларининг тарқалишига доир // Адабий мерос. – 1987. – № 1 (39). – Б. 17–18; Жўраев О. Алишер Навоийнинг эпик поэзиядаги туркигўй салафи. – Тошкент: Фан, 1990; Маҳкам А. Ворислик ва меросхўрлик // Санъат. – 1990. – № 7. – Б. 26–27; Адбуғафуров А. Ўзбек шоирлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1991. – № 6. – Б. 47–50; Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996; Аюша Гўл Серткайа. Шайх-zade Abdurrazak bahshī hayati va eserlari. – Istanbul, 1997; Priscilla Soucek. The new york public library Makhzan al-asrar and its importance // Ars Orientalis. – Vol. 18. – 1988, – P. 1–37; Rahimi F. Fethali Kaçarin Çağatay türkçesi sözlüğü. Gazi üniversitesi. Sosyal bilimler enstitüsü. Haziran. 2016; Eshonboboyev A. İgna bilan quduq qazib / <https://n.ziyouz.com>; Kamile Çetin. Haydar tilbe, MİR Haydar. Divan / Yazılı Edebiyat / Başlangıç-15. Yüzyıl / Çağatay; Содиқов Қ. “Махзан ул-асрор” маснавийсиниг эски қўлёзмалари / O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2023. – 8-iyul. – № 26 (4737); Haydar Xorazmiy XIV–XV asrlar / <https://www.ziyouz.com>.

2578, Ayosofiya kutubxonasidagi 4757/II, Ali Amiriy kutubxonasidagi 951, Britaniya kutubxonasidagi 7914/IV, Vengriya Fanlar akademiyasi kutubxonasidagi Perzsa O. 81, Nyu-Yorkning Spenser majmuasi kutubxonasidagi 41-raqamli qo‘lyozmalari, Iosif Gotvaldning Qozon bosma nashri (1858), shuningdek, “Navoiy zamondoшлари” (1948), “Asrlar nidosi” (1982), “Navoiyning niгоҳи тушган...” (1986), “Muborak makтubлар” (1987) va “Alisher Navoiyning epik поэзиядаги туркигўй салафи” (1990) kabi nashrlar tanlandi.

Tadqiqotning predmetini “Gulshan ul-asror”ning nomlanishi masalasiga aniqlik kiritish, qo‘lyozma nusxalari va nashrlari matni muqoyasasini amalga oshirish, ilmiy-tanqidiy matnini yaratish prinsiplarini ishlab chiqish va ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, turkiy tilda bitilgan “Maxzan ul-asror” turkumidagi asarlar bilan qiyoslab ko‘rsatish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-matniy, tavsiflash, analitik tahlil, statistik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Gulshan ul-asror”ning nomlanish masalasiga aniqlik kiritilgan, shuningdek, Haydar Xorazmiy “Me’rojnomа”, “Gul va Navro‘z” dostoni va Mirzo Ulug‘bekka atab yozilgan turkiy qasida muallifi ekani dalillangan;

“Gulshan ul-asror”ning dunyo qo‘lyozma fondlaridagi 19 ta arab, ikkita uyg‘ur, bitta uyg‘ur-arab yozuvidagi qo‘lyozma va ikkita toshbosma nashri borligi aniqlanib, “Gulshan ul-asror” va “Maxzan ul-asror”dagi hikoyalar soni hamda shu turkumda yaratilgan Sayyid Qosimiy, Alisher Navoiy, Komron Mirzo asari bilan qiyoslanib, farqli jihatlari ko‘rsatilgan;

“Gulshan ul-asror”dagi Qur’oni Karimdan olingan matnlar mazmuniga mos qo‘llangan she’riy san’atlar va ularda yuzaga kelgan matniy farqlarning muqoyasasi amalga oshirilib, farqlari ko‘rsarilgan;

Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan “Badoe ul-lug‘at”, “Abushqa”, “Sanglox”, “Lug‘ati chig‘atoyi ba forsiy” va “Lug‘ati atrokiya” kabi lug‘atlarda “Gulshan ul-asror” baytlaridan tasdiqlovchi misol sifatida foydalanilgani va ularning asar qo‘lyozmalaridagi matnidan farqlari ochib berilgan;

dunyo fondlarida “Gulshan ul-asror”ning oltita miniatyurali qo‘lyozma nusxasining mavjudligi aniqlanib, ularning asar matni talqinlari, ilmiy-tanqidiy matnini tuzishdagi ahamiyati va Sharq miniatyura san’atiga oid manba sifatidagi ahamiyati dalillangan;

asar matnining qo‘lyozma, toshbosma va nashrlarida farqlar borligi ochiqqlanib, ilmiy-tanqidiy matn yaratish prinsiplari ishlab chiqilgan va o‘nta nusxa asosida ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asarining nomlanish masalasiga aniqlik kiritilishi, shoiring turkiy tilda yozilgan “Me’rojnomа” asarining muallifi ekanligi, “Gul va Navro‘z” dostoni va Mirzo Ulug‘bekka atab bitilgan turkiy qasida muallifi ekanligi adabiy manbashunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan dalillangan;

“Gulshan ul-asror”ning dunyo qo‘lyozma fondlaridagi 19 ta arab, ikkita uyg‘ur, bitta uyg‘ur-arab yozuvidagi qo‘lyozma va ikkita toshbosma nashri borligi aniqlanib,

“Maxzan ul-asror” turkumidagi Sayyid Qosimiy, Alisher Navoiy va Komron Mirzo asaridan farqli va o‘xshash jihatlari ko‘rsatilgan;

Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug‘atlarda “Gulshan ul-asror” baytlaridan tasdiqlovchi misol sifatida foydalanilgani va mazkur lug‘atlar yordamchi manba sifatida tanqidiy matnini tuzishdagi ahamiyati ochib berilgan;

“Gulshan ul-asror”ning miniatyurali qo‘lyozma nusxasining mavjudligi aniqlanib, ularning asar matni talqinlari va ilmiy-tanqidiy matnini tuzishdagi ahamiyati asoslangan;

“Gulshan ul-asror” asarining o‘nta nusxasi asosida matniy farqlari ko‘rsatilib, ilmiy-tanqidiy matn yaratish prinsiplari ishlab chiqilgan va ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi “Gulshan ul-asror”ning tadqiqot predmetiga asos bo‘lgan qo‘lyozma nusxalar kabi birlamchi manbalarga tayanilgani, nazariy fikr va xulosalar amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati undagi xulosa va umumlashmalar hozirgi matnshunoslik mezonlari asosida qo‘lyozma nusxalarni qiyosiy o‘rganish, ularning ijodkor salohiyatini baholashdagi o‘rni va ilmiy tadqiqotlarda ilmiy-nazariy manba sifatida ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kelgusida Haydar Xorazmiyning hayoti, adabiy faoliyati adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohasida, shuningdek, masnaviy janriga oid risolalar, hikoya janrining taraqqiyot jarayoni, adabiyotdagi o‘rni, g‘oyaviy-badiiy qimmatini belgilash kabi mavzularga bag‘ishlangan darslik, ilmiy-uslubiy, o‘quv qo‘llanma va yo‘riqnomalar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari matniy-qiyosiy tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

“Badoe ul-lug‘at”, “Abushqa”, “Sanglox”, “Lug‘ati chig‘atoiy ba forsiy”, “Lug‘ati atrokiya” kabi lug‘atlarda “Gulshan ul-asror” asaridan, qadimiy turkiy tillarda kam uchraydigan so‘z va so‘z birliklari bo‘yicha olingan xulosalar Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti univerteti 2024-yil 6-sentabrdagi 04/1-2306-son ma‘lumotnomasi). Natijada Haydar Xorazmiy hikoyatlarida qo‘llanilgan va ko‘plab lug‘atlarga kiritilgan qadimiy turkiy so‘z va so‘z birliklarining mazmun-mohiyati, ularning ijodkor adabiy mayllarini ifodalashdagi o‘rni va badiiyati yuzasidan aniq xulosalar chiqarish imkonini bergan;

“Gulshan ul-asror” asarining yaratilish tarixi, tuzilishi, asarga turdosh bo‘lgan manbalardan farqli jihatlari, masnaviy janridagi she‘rlar hamda ularning ifoda imkoniyatlariga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan IZ-2021020813 raqamli “Alisher Navoiy ijodining xorijda o‘rganilishi va targ‘iboti asosida ko‘p tilli multimedia to‘plamini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi

o‘zbek tili va adabiyoti univertiteti 2024-yil 6-sentabrdagi 04/1-2305-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha matning qiyosiy nazariyasiga bag‘ishlangan qismlari manbalar tahlili va matnini yaratilishi taraqqiyotiga oid xulosalar bilan boyigan;

Haydar Xorazmiyning hayot yo‘li va ijodiy foliyatiga oid materiallar, uning adabiyotshunoslikka oid faoliyati, bu borada yozib qoldirgan fikrlari, qo‘lyozma nusxalariga oid ilmiy-nazariy xulosalar Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan F3-2019122558-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasi yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 6-sentabrdagi 04/1-2307-son ma’lumotnomasi). Natijada muallifning yozib qoldirgan asarlari va undagi arabiy-forsiy so‘z birliklari bilan birga hozirgi paytda iste’moldan chiqib ketgan turkiy so‘zlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan.

Haydar Xorazmiyning Nizomiy Ganjaviy asarlariga munosabati, bu ikki tarixiy siymoning asarlari mumtoz adabiyotdagi talqinlariga tahlil va xulosalardan O‘zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi 2022–2024-yillar bajarilgan O‘A-22-24 raqamli o‘zbek-ozarbayjon adabiy-madaniy aloqalari” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Ozarbayjon Respublikasining O‘zbekistondagi Elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyati Markazining 2024-yil 12-dekabrda № 47/AZ son ma’lumotnomasi). Natijada adabiy ta’sir va adabiy aloqa hodisalari, bir ijodkorning keyingi davr adabiyotiga ta’siri kabi tadqiqotlardan Ozarbayjon Madaniyati Markazi foydalangan.

“Gulshan ul-asror”dan keyin yaratilgan asar mualliflari Alisher Navoiy, Sayyid Qosimiy va Komron Mirzolarning “Maxzan ul-asror” turkumida yaratilgan asarlari struktural jihatdan o‘rganildi. “Gulshan ul-asror”ning xalaf ijodkorlar asarlaridagi hikoyalarning muqoyasasi, Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug‘atlar Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari va ularning qo‘lyozma nusxalariga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi “Subhidam” dasturida efirga uzatilgan teleko‘rsatuvlar dasturini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi “Subhidam” dasturi 2024-yil 2-oktyabrdagi 212/13-10-son ma’lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarga buyuk shoir she’riyatining nozik qirralarini tanishtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

“Gulshan ul-asror”ning miniatyurali qo‘lyozma musxalarining hoshiyasidagi turkiy so‘zlar va ularning imlosiga oid xulosalardan Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialida 2018–2021-yillarda bajarilgan FZ-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filiali 2025-yil 5-martdagi 99-son ma’lumotnomasi). Natijada turkiy tilda bitilgan “Gulshan ul-asror”ning miniatyurali qo‘lyozmalaridagi qadimiy turkiy so‘zlar va ularning imlosi yuzasidan umumlashmalar chiqarishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 26 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, ulardan, 9 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya umumiy hajmi 230 betni tashkil etadigan kirish, to’rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va 170 betdan iborat ilova qismidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy qiymati yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e’lon qilingani hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi **“Haydar Xorazmiy ijodiy merosi manbalari ko’lami va “Gulshan ul-asror”ning matni tarixi”** deb belgilanib, uning birinchi faslida **“Gulshan ul-asror”ning yaratilish tarixi va muallifiga oid qarashlar tahlili**” amalga oshirilgan bo’lib, Haydar Xorazmiyning shaxsiyati, tug’ilgan yili va vafoti sanasiga daxldor ma’lumot beriladi. Asarlaridan namuna va shaxsiyatiga oid ma’lumotlarda shoirning oti Mavlono Abdul Haydar Xorazmiy, Mavlono Haydar turkigo’y, Mir Haydar, Haydar Xorazmiy va Haydar telba shaklida qayd qilingan. Manbalarga asoslanib, uni XIV asrning birinchi yarmi – XV asr boshlarida yashab ijod qilgan deyish mumkin. Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” vaznidagi “Gulshan ul-asror”, “Xisrav va Shirin” vaznida bitilgan “Gul va Navro’z”, payg’ambarimizning Me’rojga chiqish voqeasiga bag’ishlangan “Me’rojnoma” va Mirzo Ulug’bekka atab bitilgan turkiy qasidasi yetib kelganligi bayon qilindi.

Haydar Xorazmiy Amir Temurning nabirasi Sulton Iskandar Mirzo ibn Umarshayx Fors viloyatida hokimligi davrida Sherozda yashab ijod bilan mashg’ul bo’lgan. Iskandar Mirzo garchi oz muddat hokimlik qilgan bo’lsa-da, bu vaqtda Muyiniddin Natanziy, Haydar Xorazmiy kabi olim va shoirlar yetishib chiqqan. XV asrning birinchi yarmida Fors o’lkasida olimlar ilm, adab ahli ijod bilan shug’ullanishlari uchun qulay adabiy muhit bo’lgan. U yerda turli janrlardagi badiiy asarlar, tarixiy-badiiy kitoblar, rassomchilik, xattotlik sohasida ham ayrim ishlar qilingan edi. Bu davrda, asosan, ikki tilda forsiy va turkiy tillarida asarlar yaratilar edi.

Ma’lumki, forsiy va turkiy she’riyatda Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” asariga nazira va sharhlar bitish an’anasi shakllangan. Jumladan, Haydar Xorazmiy ham “Maxzan ul-asror” dostoniga javoban “Gulshan ul-asror” asarini

yaratgan¹². “Gulshan ul-asror (“Maxzan ul-asror”) asari 1413-yili Sherozda yozilgan¹³. Asarda uning yaratilgan davri va kimga bag‘ishlanganiga oid aniq qaydlar bor.

“Funun ul-balog‘a”ning muallifi Shayx Ahmad Taroziy: *“Haydar Xorazmiy “Ablag‘u-l-mutaaxxirin Mavlono Haydar” ya’ni (“so‘nggi zamon (shoirlari) ning eng balog‘atlisi Haydar”) deb ta’riflasi¹⁴, Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida: “... Az fuzalo, ki dar ro‘zgori Sulton Iskandar budand Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydar budast, ki dar turky va forsiy ash‘ore maleh dorad va javobi “Maxzan”i Shayx Nizomiyro ba turkiy gufta ba nomi shahzoda Iskandar” (“... Sulton Iskandar hukmronligi davrida Mavlono Muiniddin Natanziy va Mavlono Haydar kabi fozil kishilar bo‘lgan ekan. (Mavlono Haydar)ning turkiy va forsiy tillarda bitgan yaxshi she‘rlari bor va u Nizomiyning “Maxzan ul-asror”iga o‘zbek tilida javob yozib, (uni) Shahzoda Iskandar otiga bag‘ishladi)¹⁵, – deb Haydar Xorazmiy “Gulshan ul-asror”ni Iskandar Mirzoga bag‘ishlaganini aytgan bo‘lsa, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Iskandar Mirzoni hurmat bilan tilga olarkan *“Mavlono Haydar turkigo‘y aning modih ekandur”*, deya ta’riflaydi.*

Shoirning taxallusiga oid turli qarashlar tahlili ham amalga oshirilgan. Jumladan, S. Erkinov va Yo. Is‘hoqovlarning maqolalari tahlil etilib, xolisona fikr qilishga harakat qilingan. Shuningdek, asar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga ham to‘xtalinib, olimlar tomonidan “Gulshan ul-asror” ekanligi aniqlangan bo‘linsada haligacha “Maxzan ul-asror” deb qayd qilinib kelinyapti. “Maxzan ul-asror” va “Gulshan ul-asror” asarlarining tarkibi qiyoslandi. Masalan, “Maxzan ul-asror”da hamd, na’t va me’rojga oid baytlardan tashqari 20 ta maqolot va xotima bo‘lsa (2260 baytdan ziyod), “Gulshan ul-asror”da hamd, na’tdan tashqari 9 ta maqolot (622 bayt) bor.

“Shoirning “Me’rojnoma”si, “Gul va Navro‘z” dostoni va turkiy qasidasi tadqiqi” deb nomlangan ikkinchi faslda Haydar Xorazmiyning “Me’rojnoma” nomi bilan Muhammad sallolohu alayhi vasallamning me’roj voqeasiga bag‘ishlangan asari haqida ma’lumot beriladi. Asar diniy ruhda bo‘lgani uchun sobiq ittifoq davrida umuman tilga olinmagan yoki keng ommaga ma’lum qilinmagan. So‘nggi yillarda “Me’rojnoma” tadqiqiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Shunday bo‘lsa-da, asar muallifi Haydar Xorazmiyniki ekaniga oid qat’iy bir xulosa aytishmagan.

“Me’rojnoma” asarining muallifi Haydar Xorazmiy ekanini birinchi bo‘lib Shomahmud Muhammadjonov: “Islomning jonli mavjudot aksini chizishni ta’qiq etgani haqidagi qarashlar butkul soxta ekanligini Parijda saqlanayotgan Haydar Xorazmiyning “Me’rojnoma” asaridagi 45 miniatyura rad etadi. Zero, bu miniatyuralarning jami Ilohiy mavzuda bo‘lib, payg‘ambarning “Me’roj”ga ko‘tarilish ta’rifi va tavsifidan iborat. Bordi-yu o‘sha soxta da’volarda jilla qursa

¹² Шайх Низомий Ганжавий. Махзан ул-асроп. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б. 10.

¹³ Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов востока. – М.: Наука, 1985. – С. 236–238.

¹⁴ Ahmad Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog‘a. Qo‘lyozma. Oksford universiteti Bodlean kutubxonasi. Inv. № 127. 110 b -varaq

¹⁵ Qarang: Валихўжаев Б. Ўзбек классик адабиётида эпик поэзиянинг таракқиёти тарихидан. Филол. фанлари д-ри ... дис. – Самарқанд, 1967. – Б. 65.

jon bo'lsa, Turkiyaning birgina To'pqopi muzeyida saqlanayotgan 32 ming mo'jaz rangtasvir asarini kim yaratgan?", – deya bayon qilgan¹⁶. Eronlik olimlar Nag'mai Haraziyon, Marjon Murtazaviy va Abbos Novbaxtlarning "Me'rojnoma" haqida "Rivoyati sharqiyi "Me'rojnoma Mir Haydar" nomli¹⁷, Eronning "Tebyan madaniyat bo'limi" xodimi Sumayyo Ramazon Mohiyning "Me'rojnoma"ning mazkur nusxasi haqidagi "Me'rojnoma Mir Haydar"¹⁸ nomli maqolasi va boshqa tadqiqotlarda asar muallifi Haydar Xorazmiy ekani ma'lum qilingan.

Haydar Xorazmiy Nizomiyning "Xisrav va Shirin" asari vaznida "Gulu Navro'z" dostonini Amir Temurning nabirasi Sulton Iskandarning buyrug'i bilan yozilgan¹⁹. "Gulu Navro'z" haqida bir guruh olimlar Haydar Xorazmiy "Gul va Navro'z"ni tarjima yoxud ijodiy tarjima deyishga moyil bo'lsalar, ikkinchi guruh olimlarimiz "Gulu Navro'z"ni Lutfiy asari deb keldilar²⁰. Vaholanki, bu asar Haydar Xorazmiyga tegishli ekanini Alibek Rustamov, Yoqubjon Is'hoqov va boshqalar XX asrning yetmishinchi yillardayoq ta'kidlashganlar. Shuningdek, Abduqodir Hayitmetov va Ergash Umarovlarning Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asariga bag'ishlangan maqolalarini ham ko'rsatish mumkin²¹. Shayx Ahmad Taroziy "Funun ul-balog'a" sida shoirning ijodidan bir necha o'rinlarda foydalanadi. Masalan, "Pisandidayi ro'zgor Mavlono Haydar aytur", "Mavlono Haydarning "Gul va Navro'z" idin butur", "Shayx Nizomiy. Maxzan ul-asror. Hoju "Ravzatu-l-abror", "Mavlono Haydar "Gul va Navro'z"ni bu vaznda aytibturlar" kabi jumlar bilan shoir asarlaridan misollar beradi²². Ushbu manbaning inkor qilib bo'lmas misollaridan so'ng A. Hayitmetov: "Haydar Xorazmiy Shayx Ahmad bilan zamondosh bo'lib, Shayx Ahmad uning ijodini juda yaxshi bilgan. Binobarin, uning "Gul va Navro'z"ni Lutfiyga emas, Haydar Xorazmiyga nisbat berishi asosli. Keyingi davr tadqiqotchilarining bu dostonni Lutfiyga nisbat berganliklari, shu paytgacha uning asarlari tarkibida nashr etganliklari bundan buyon takrorlanmasligi kerak", – deydi²³.

Iskandar Mirzo bilan Haydar Xorazmiy o'rtasida turli sabablarga ko'ra "Gulshan ul-asror" dan keyin "Gul va Navro'z"ni yozishga rag'batlantirishga imkon bo'lmagan. Shu bois shoir payti kelib Iskandar Mirzo "Gul va Navro'z"ni bitishga chorlaganini: "Tarahhum qildi o'z eski qulina", – deya lutf qiladi²⁴. Tadqiqot doirasida "Gul va Navro'z"ni S. Dolimov va U. Dolimovlar tayyorlagan

¹⁶ Маҳкам А. Ворислик ва меросхўрлик // Санъат. – 1990. – №7. – Б. 26–27.

¹⁷ روایت شرقی (Нағмаи Ҳаразиён, Маржон Муртазавий, Аббос Новбахт) مرجان مرتضوی، عباس نوبخت نغمه خرازيان، سال پنجم شماره 21 زمستان 1390 // کمیای هنری // معراج نامه میرحیدر

¹⁸ معراجنامهی میرحیدر (Сумайё Рамазон Моҳий. Меърожномаи Мир Ҳайдар). سگای، ماریرز. (1385). معراجنامه، سفر معجزه‌آسای پیامبر(ص). ترجمه‌ی مهناز شایسته‌فهر. تهران: موسسه‌ی مطالعات هنر اسلامی (مهاس)

¹⁹ Исҳоқов Ё. "Гул ва Наврўз"нинг муаллифи масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1972. – № 1 – Б. 62.

²⁰ Аҳмадхўжаев Э. Алишер Навоийгача бўлган ўзбек шоирлари асарларининг тарқалиши // Адабий мерос, 1987. – № 1 (39). – Б. 17–18.

²¹ Ҳайитметов А. Тарозийнинг қомуси // Фан ва турмуш. – 1994. – № 1. – Б. 6–7; Умаров Э. Шайх Аҳмад Тарозий: Фунун ул-балоға / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1994, – № 6–7.

²² Ahmad Xudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a. Qo'lyozma. Oksford universiteti Bodlean kutubxonasi. Inv. № 127, 110 b-varaq.

²³ Ҳайитметов А. Адабиётдан туркийда биринчи назарий қўлланма // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2002. – № 1 – Б. 86.

²⁴ Лутфий. Сенсан севарим. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б. 355.

nashr bilan Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasida 1911-raqamli qo‘lyozma qiyoslangan.

Sakkokiyning Mirzo Ulug‘bekka atab yozgan qasidasidan ta’sirlanib, Haydar Xorazmiy va Shayx Abdurazzoq Baxshilar qasida yozganlarini Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi Haydar Xorazmiy baytlarini hech o‘zgarishsiz o‘z qasidasida tazmin tarzida keltirgan. M. Hasanova dissetatsiyasida Haydar Xorazmiy qasidasi haqida aytib o‘tgan²⁵.

Turkiyalik olimlar tomonidan ham qasidaning bir necha jihatlari tadqiq etilib, kitob va to‘plamlarda nashr qilingan. Jumladan, qasida ilk bor Kamol Eraslaning “Mevlana Sekkakı dıvanı” kitobidan o‘rin olgan. Keyinchalik Ayshagul Sertkaya “Şayh-zade Abdurrazak bahshı hayatı va eserları” nomli tadqiqot ishiga Haydar Xorazmiy qasidasi matnini kiritgan. Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi asli movarounnahrlik ijodkorlardan bo‘lib, usmonli turk davlatida “Baxshi”, “Baxshi qul”, “Turkiston baxshisi” va “Baxshiyi Turkistoniy” nomlari bilan mashhur bo‘lgan. U Istanbulga borib, Fotih Sulton II Mahmud va uning o‘g‘li Boyazid saroyida kotiblik ishlari bilan shug‘ullangan va ijod qilganligini Ayshagul Sertkayaning tadqiqotlaridan ma’lum. Ayshagul Sertkayaning yozishicha: “Shayx Abdurazzoq Baxshi Fotih Sulton II Mahmud va uning o‘g‘li Boyazidning saroyida yashagan, ularga maktub (bitig) va farmon (yorliq)larni uyg‘ur va arab alifbosida yozgan.

Haydar Xorazmiy *qasidasi* Sakkokiyning Ulug‘bek Mirzoga bag‘ishlab yozilgan 41 baytli qasidasiga naziradir. Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi ham ikki shoir ijodidan ta’sirlanib, Mirzo Ulug‘bekka atab o‘n yetti baytli qasida yozgan. Uch qasida qiyoslanganda quyidagi o‘xshashliklar ko‘zga tashlanadi:

Sakkokiy: Torumtay, qarqunaq, qirg‘iyu bayg‘uy, gar solur bo‘lsang,
Olur cherig‘u aylar nasru tutar fathu zafar ovlar²⁶.

Haydar Xorazmiy:
Torumtay, ko‘ykanak, qirg‘i boquga tarbiyat qilsang,
Uqobu, karkashu, burgut qachirni eslamas ovlar²⁷.

Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi:
Torumtoy, ko‘ykanak, qirg‘u boqug‘a tarbiyat qilsang,
Uqobu karkasu, burgut, qachirni eslamay ovlar²⁸.

Umuman, ijodkorlarning ushbu baytlarining shakl va mazmun jihatdan bir xil bo‘lishini Haydar Xorazmiy va Shayxzoda Abdurazzoq Baxshilarning Sakkokiy qasidasidan ta’sirlanib yozganligini misollardan ko‘rish mumkin. Ushbu baytlar uch ijodkor qasidalarining turli o‘rinlarida keladi. Sakkokiya 33-baytda, Haydar Xorazmiyda 28-baytda, Abdurazzoq Baxshida 3-baytda.

Uchinchi fasl “**Gulshan ul-asror**”ning qo‘lyozma nusxalari va nashrlari tavsifi”ga bag‘ishlangan. B. Valixo‘jayev birinchi bo‘lib asar qo‘lyozmalarining

²⁵ Hasanova M. XV asr turkii şeърияtda қасида жанри. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Самарқанд, 2018. – Б. 83.

²⁶ Ayşā Gül Sertkaya. Şayh-zade Abdurrazak bahshı hayatı va eserları. – Istanbul, 1997. – S. 74.

²⁷ Mevlana Sekkakı dıvanı. Hazırlayan: Kemal Eraslan. – Ankara, 1999. – S. 35.

²⁸ Yuqorida keltirilgan nashr. – S. 36.

dunyo fondlarida oltita nusxasi mavjudligi haqidagi ma'lumotni keltirgan²⁹. N. Abdullayev asarning o'nlab nusxalari borligini zikr qilgan³⁰. E. Ahmadxo'jayev ham oltita qo'lyozma xususida so'z yuritadi³¹. Turkiyalik olim Serkan Çakmak o'n uch nusxasi to'g'risida ma'lumot bergan³². So'ngi tadqiqotlar natijasida asarning yigirmadan ziyod nusxasi borligi aniqlandi. O'n to'qqizta arab yozuvli, shundan ikkitasi uyg'ur yozuvli, bittasi uyg'ur-arab yozuvli va ikkita toshbosma nusxasi aniqlandi: 4 ta Turkiya, 1 ta Amerika Qo'shma Shtatlari, 1 ta Fransiya, 1 ta Vengriya, 2 ta Britaniya, 1 ta Irlandiya, 1 ta Avstriya, 1 ta Germaniya, 1 ta Hindiston, 2 ta Tatariston, 2 ta Eron, 1 ta Gruziya, 1 ta Kanada, 1 ta (fotokopiya) O'zbekistonda saqlanadi. Mazkur nusxalarning tavsifi berilgan.

“Gulshan ul-asror” asarini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmida rus va Yevropa sharqshunos-turkologlari tomonidan boshlandi. Asarning 1858-yil 19-martda amalga oshirilgan Qozon nashri I. Gotvald tomonidan tayyorlangan. Qozon bosma nashrining oxirgi varag'ida nashrga tayyorlovchining ismi “يسوف كوتوال” deb yozilgan. Iosif Gotvaldning ismi sharq an'anasiga ko'ra “*Yusuf Kutvol*” ko'rinishida yozilgan. Ushbu nashr uchun asarning Qozon va Vena nusxalari asos qilib olingan³³. 1882-yil “Gulshan ul-asror” (“Maxzan ul-asror”) Fransiya milliy kutubxonasidagi A. Pave de Kurteyl tomonidan nashrga tayyorlanib, “Me'rojnoma” ning 62–95-sahifalarda “Gulshan ul-asror” (“Maxzan ul-asror”) berilgan³⁴. Vatanimizda professor Hodi Zarif 1947-yili Nizomiy Ganjaviy tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan anjuman uchun nashrga tayyorlagan “Guldasta” nomli to'plamida birinchi bo'lib “Maxzan ul-asror” (“Gulshan ul-asror”) asaridan namuna e'lon qildi³⁵. 1976-yilda N. Abdullayev asar matnini nashr etgan³⁶. 1963-yil turkiyalik olim Reshid Rahmatiy “Gulshan ul-asror”ning 33 baytini aslyat va transkripsiya ko'rinishida “Bir Yazı Nümûnesi Münâsebeti ile” (Bir yozuv namunasiga munosabat) nomli maqolasida “Maxzan ul-asror” nomi bilan e'lon qilgan³⁷. Professor O. Jo'rayev “Gulshan ul-asror”ni birinchi bor 1982-yilda mumtoz o'zbek adabiyotidan namunalar sifatida “Asrlar nidosi”³⁸, ikkinchisi 1987-yil “Muborak maktublar” to'plami³⁹, uchinchisi, 1990-yil “Alisher Navoiyning epik poeziyadagi turkigo'y salafi” nomli monografiyaga ilova sifatida taqdim etgan⁴⁰. Turkiyalik tadqiqotchilar Avni Go'zo'tok va Abdulaziz Xojalar

²⁹ Валиходжаев Б. Из истории развития эпической поэзии в узбекской литературе. Автореф. д-ра фил. наук. – Самарканд, 1968. – С. 14.

³⁰ Абдуллаев Н. Хайдар Хоразмий ва унинг “Махзан ул-асрор” асари: Фил. фан. номз. ... дисс. Илова. – Тошкент, 1974. – Б. 2.

³¹ Ахмадхўжаев Э. Алишер Навоийгача бўлган ўзбек шоирлари асарларининг тарқалиши // Адабий мерос. – 1987. – № 1 (39). – Б. 21.

³² Serkan Çakmak. Mahzanul Asror'un Uygur harfli Ali Shah Bahshi'nin bir nusxasi. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi // Journal of Turkish Researches Institute. TAED-66. – Erzurum, Eylül–September, 2019. – S. 323–352.

³³ Maxzan ul-asror. Nashrga tayyorlovchi Iosif Gotvald. – Qozon, 1858. –B.32.

³⁴ Courtaillé A. Pavet de. Miradj-nameh. Le manuscrit Oigour de la Bibliotheque Nationale Paris, 1882. – P. 62–95.

³⁵ Гулдаста. Низомий Ганжавий 800 йиллигига бағишланган тўплам. – Тошкент, 1947. – Б. 95–100.

³⁶ Абдуллаев Н. Хайдар Хоразмий ва унинг “Махзан ул-асрор” асари. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 9.

³⁷ Arat, Reşit Rahmeti. Bir Yazı Nümûnesi Münâsebeti ile. İstanbul Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi, XII, 1963. – S. 121–138.

³⁸ Asrlar nidosi. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1982. – 542 б.

³⁹ Муборак мактублар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б. 302.

⁴⁰ Жўраев О. Алишер Навоийнинг эпик поэзиядаги туркигўй салафи. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 85.

ham asar nashrini hozirgi turk tilida amalga oshirgan bo'lsalar-da, asar haqida to'liq tasavvur hosil qilib bo'lmaydi. Tadqiqotda mazkur nashrlarning o'zaro farqlari yuzasidan xulosalar bildirilgan.

Ikkinchi bob **“Gulshan ul-asror” qo'lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi**” deb nomlanib, birinchi faslida **“Gulshan ul-asror” qo'lyozma nusxalarining qiyosiy tahlili**” amalga oshirilgan. Matniy qiyos uchun asarning o'nta nusxasi tadqiqot doirasiga jalb qilindi va ular asosida tanqidiy matn tayyorlandi. Qo'lyozma nusxalarni tahlil qilishda shartli belgilash sifatida mamlakat yoki kutubxona nomining bosh harflarini oldik. Masalan Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi As'ad afandi nusxasi A, Eron nusxasi E, Britaniya nusxasi B, Nyu-York nusxasi N deb berildi. Nusxalarni tahlil uchun ushbu prinsiplar asosida o'rganildi: 1. Sarlavhalardagi farqlar. 2. Misra, bayt va bandlar tartibidagi farqlar. 3. Biror so'zning o'rniga uning muqobilini ishlatilishi kabi o'zgarishlar. 4. Bir nusxada mavjud, ammo boshqa nusxaga kirmay qolgan baytlar tahlili kabi qismlarda o'rganib nusxalar tahlili amalga oshirilgan. Matndagi farqlar jadvaldagi singari ko'rsatilgan:

Qo'lyozma sahifasi	Asarning birinchi sarlavhalari
E11a	Ma'rifat panoh Haydar telba aytur.
B1a	Haydar telbaning masnaviysi.
T2a	Mavlono Haydar telbaning masnaviysiki, Sulton Iskandar Mirzoning modihi ekandur. Ul Sulton sohibqiron ismig'a oytulg'ondur.
A192a	Naqli az Haydar Telba, dar javobi “Mahzani asror” shayxi Nizomiy alayhi rahma.
N3b, 4a	“Maxzani asror” afsahul mukallimin. Mavlono Haydar alayhi rahma.

Qo'lyozma nusxalarda hikoyatlar sarlavhalari ham turli xil nomlangan. Masalan, To'pqopi nusxasida **“حكايت فى تمثيل”** – **“Hikoyati fi tamsil”**, Hirot nusxasida – **“حكايت”** **“Hikoyat”** yoki **“موعظه”** – **“Mav'iza”**, Eron nusxasida **سوز باشى** **“So'zboshi”** deb nomlangan. Eron nusxasining ba'zi o'rinlarda **“Maqolot”**ni **“نصيحت”** – **“Nasihah”** nomi bilan keltirilgan. Fransiya nusxasida esa umuman sarlavha berilmagan va hakazo.

Maqolotlarning nomi To'pqopi nusxada: **“بشینیچی مقاله بیرار نیمه حکمت علمینه”** – **“Beshinchi maqola. Biror nima hikmat ilmuna mavsum o'nlanung bayon sudi va avsoq un-nos qaboilining ahsan ul-ahvoli va behbudi”** deb to'liq yozilgan bo'lsa, Eron nusxasida **“سوز باشى”** – **“So'zboshi”** deb nomlagan.

Asarning hamd bobi To'pqopi nusxasida 11 bayt, Hirot, Fransiya nusxasida 15 bayt va Eron nusxasida 14 bayt va hokazo. Ko'rinib turganidek to'rt nusxadagi bir masnaviyning bayt sonlari ham turli xil. Bir nusxasida to'rt bayt yo'q bo'lsa, yana birida bir bayt yo'q. Fransiya, Hirot va Eron nusxasida hamd bobida keluvchi quyidagi bayt, yettinchi bayt sifatida keladi. To'pqopi nusxasida esa uchinchi bayt sifatida yozilgan.

E11a (hoshiya), B1a	F25a, T2b
چرخ و فلاک دورایتار آتیدین ایکی جهان بولدی عیان ذاتیدین	چرخ و فلاک دور دا دور آتیدین جمله جهان بولدی عیان ذاتیدین
Charxu falak davr etar otidin, Ikki jahon bo‘ldi ayon zotidin.	Charxu falak davrada dur etar otidin, Jumla jahon bo‘ldi ayon zotidin.

Ushbu baytning nafaqat o‘rni o‘zgargan, balki ikkinchi misrasining E, B nusxalarida “ایکی جهان” – “ikki jahon” so‘z birikmasi N, F, T nusxalarda “جمله جهان” – “jumla jahon” shaklida ifodalangan. “Ikki jahon” so‘z birikmasi bu foni dunyo va oxiratni ifodalasa, “jumla jahon” so‘z birikmasi butun borliqni ifodalaydi va bayt mazmunini kuchaytirib beradi.

Kitob xotimasiga bag‘ishlangan qismida ba‘zi so‘z birikmalarining farqli jihatlarini ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, To‘pqopi nusxasida “jo‘yali bo‘lsa”, Fransiya nusxasida “xo‘psoli bo‘lsa”, Hirot va Eron nusxalarida “jo‘psoli bo‘lsa” kabi o‘zgarishlar bor. Quyida ko‘rsatiladi:

Nusxa sahifalari	Arab alifbosida	Joriy yozuvda yozilishi
T22a	جويالی بولسه ساچین انچه در	<i>Jo‘yoli</i> bo‘lsa sochoyin oncha dur
F52b, M37a	خويسالی بولسه ساچین انچه در	<i>Xo‘psoli</i> bo‘lsa sochayin oncha dur
B28a, E22a, Q9, N20a, U75	جويسالی بولسه ساچین انچه در	<i>Jo‘psoli</i> bo‘lsa sochayin oncha dur

Biror so‘zning o‘rniga uning muqobili ishlatilishi kabi o‘zgarishlarni ham ko‘rish mumkin. Masalan, Hikoyati o‘z hasbi holig‘a va kitobning husni moqolig‘a” – “حکایت اوز حسب خالیغه و کتاب نینک حسن مقالیغه” deb nomlangan bobda ham ba‘zi baytlardagi so‘z birikmalari turlicha keltirilgan. Masalan, B va E nusxada “Uydagi dushman” – “اویداغی دوشمان”, F nusxasida “Aduvki dushmang‘a” – “ایودا کی دوشمانغه”, T nusxasida “Evdagi dushmang‘a” – “ایودا کی دوشمانغه” shakllarida turli xil ifodalangan. Bunday misollarni ko‘p keltirish mumkin.

Nusxalarda baytlarning soni barcha nusxalarda ham bir xil emas. Hatto ayrim nusxalarda ba‘zi hikoyatlar to‘liq mavjud emas. Masalan, Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi Ayosofiya bo‘limida saqlanuvchi 4757/II-raqamli nusxada hamd bobiga oid baytlar yo‘q. Shuningdek, “Forsda bir forsi chobuk suvor”, deb boshlanuvchi “Hikoyat” ham yo‘q. Vengriyaning Budapesht kutubxonalarida saqlanuvchi Perzsa O.81 raqamli nusxada “Hikoyati Bahlul” mavjud emas va hakazo. Bir nusxada bor ammo boshqa nusxaga kirmay qolgan baytlar soni qiyoslanganda tahlilga tortilgan o‘n nusxada yetmishdan ortiq farqlar aniqlandi.

“**Gulshan ul-asror**” hikoyalari matni va talqini masalasi” faslda olimlarning “Gulshan ul-asror” hikoyalaridan olingan matn talqinlari, bu talqinlar qanchalik matn va davrga mosligi tadqiq etilgan. Talqinlar davrga moslashtirilgan o‘rinlar qanday ekanligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, bu talqinlar tanqidiy matnga asoslanmagan holda noto‘g‘ri talqiniga sabab bo‘lganligi asoslangan. Har bir talqinning matnga qanchalik to‘g‘ri kelishi tahlil qilinadi. A. Abdug‘afurovning “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1963-yil 4-sonida e‘lon qilingan “Haydar

Xorazmiy ijodida satira masalasiga oid” nomli maqolasidagi “Bo‘z to‘quvchi va bazzoz” hikoyasi tahlilida: “*Feodal hukmronligi* sharoitida ham moddiy, ham ma’naviy ezilgan, ochlik va yalang‘ochlikka mahkum etilgan, hukmron sinflar va din arboblari turli yo‘llar bilan talanayotgan mehnatkash aholining vakili bo‘lgan kambag‘al kosib kampir hamda feodal tuzumda hukmron bo‘lgan sinf vakili, ezish, talash, aldash orqali boyib olgan ochko‘z, hiylakor va zolim savdogarlar vakili bazzoz bir-biri bilan to‘qnashadi va shu asnoda feodal tuzumdagi jirkanch ijtimoiy illatlardan biri fosh etiladi” kabi fikrlar bilan talqin qilingan⁴¹. B. Valixo‘jayevning “O‘zbek klassik adabiyotida epik poeziyaning taraqqiyoti tarixidan” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Haydar Xorazmiy ijodiga doir fikrlari tahlili amalga oshirilgan⁴²; N. Abdullayevning “Haydar Xorazmiy va uning “Maxzan ul-asror”i” nomli filologiya fanlari nomzodi ilmiy adarajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi tahlil qilingan. Jumladan, dissertatsiyaning 94-betida Amir Temur hikoyatini: “Temur...mamlakatda ta’siri kuchli bo‘lgan ruhoniylarning himoyasi naqadar zarurligiga, shubhasiz, tushunar edi. Shuning uchun u ularga katta imtiyoz berar edi. “Temurning chiqishida uni o‘ragan shahar a’yoni, sayyidlar va umuman tashqi savdo bilan bog‘liq *feodallar* G‘arb bilan Sharq o‘rtasidagi qadimgi karvon yo‘lini butunlay qo‘lga olishdan va undagi savdodan keladigan daromaddan juda katta manfaatdor edi”. Yoki: “Yerlarning yana bir turi ushriy yerlar bo‘lib, bunday yerlar sayyid va xo‘jalar qo‘l ostida to‘planar edi” kabi fikrlar bilan asarni talqin qilishga harakat qiladi”⁴³. O. Jo‘rayevning “Alisher Navoiyning epik poeziyasidagi turkigo‘y salafi” nomli monografiyasida Haydar Xorazmiyning Alisher Navoiy ijodiga ta’siri tahlili o‘rganilib, xulosalar chiqarilgan⁴⁴. Mazkur olimlarning tadqiqotlarida “Gulshan ul-asror” davr nuqtayi nazaridan talqin qilishga harakat qilingan. So‘fiyona mavzudagi hikoyatlarni talqin qilishda ehtiyotkorlik qilib, ba‘zan hikoyat satira ko‘rinishidagi asar deyilgan bo‘lsa, podsholar haqidagi hikoyatlar zodagonlarni tanqid qiluvchi hikoyatlar sifatida baholangan.

“Asardagi Qur’oni Karimdan olingan matnlar muqoyasasi” nomli uchinchi faslida Haydar Xorazmiy hikoyatlar da Qur’on oyatlaridan keltirilgan iqtiboslar tahlil qilingan. Iqtiboslarning ba’zilari oyati karimadan biror so‘z yoki bir qismi olingan. Shu bilan birga asarda Alloh Taoloning ismi va sifatleri, farishtalar, payg‘ambarlar ismlari qo‘llanilganligi baytlar misolida keltiriladi. Masalan, “Baqara” surasi 32-oyati “*Qolu subhanaka lo ilma lano illa ma allamtana innaka anta al-alimul hakim*” (Ular) dedilar: “Zoti pokning haqqi, bizda O‘zing bildirganingdan o‘zga ilm yo‘qdir”⁴⁵) “لَا عِلْمَ لَنَا” – “Lo ilma lano” qismi quyidagi baytda iqtibos sifatida keltirilgan.

⁴¹ Qarang: Абдуғафуров А // Ўзбек тили ва адабиёти. –1963, –№ 4. –Б. 26-32

⁴² Qarang: Валихўжаев.Б. Ўзбек классик адабиётида эпик поэзиянинг таракқиёти тарихидан. Фил. фан. докт. дисс. – Самарқанд, 1967. – 449 б.

⁴³ Qarang: Абдуллаев Н. Ҳайдар Хоразмий ва унинг “Махзан ул-асрор”и. Филол. фан. номз. дисс. –Тошкент, 1974. –191 б.

⁴⁴ Qarang: Жўраев О. Алишер Навоийнинг эпик поэзиядаги туркигўй салафи. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 85.

⁴⁵ Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима (Абдулазиз Мансур таржимаси). – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2004. – Б. 6.

Himmating ul yerg'aki silkar etak,
Ajz ila "Lo ilma lano" der malak⁴⁶.

همتینگ اول یرداکی سیلکار ایتاک
عجز ایله لا علم لنا دیر ملک

Mazkur oyati karimadan olingan so'z birikmasini asar qo'lyozma nusxalarida turli imloviy shakllarda yozilganini ko'rish mumkin. Masalan, Britaniya nusxasida "لا علم لنا"; Qozon bosma nusxada "لا علم لنا"; Vengriya nusxasida "لا علمنا"; Eron nusxasida "لا علم لنا"; Turkiyaning Ayosofiya kutubxonadigi uyg'ur-arab alifbosida yozilgan nusxada "لن علما لنا"; Turkiyaning Ali Amiriy kutubxonasigi nusxada "لا علم لنا" shakllarida imloviy farqlar bilan yozilgan. "Anbiyo" surasining 104-oyatida: "Yavma natvis-sama-u ka-tayyis-sijli lil-kutubi kama badaana avvala xolqin nuayiduhu va'dan alayna inna kunna fa'ilin" (U kunda Biz osmonni xuddi maktub yozilgan sahifani o'ragan kabi o'rab, birinchi marta qanday yaratgan bo'lsak, (o'sha yaxlit holiga) qaytarurmiz. (Bu) Bizning zimmamizdagi va'dadir. Albatta, Biz (shunday) qiluvchidirmiz)⁴⁷ oyatining "كَطِي السَّجَلِ" – "ka-tayis-sijl" qismi "السَّمَاءِ كَطِي" – "assamo-u ka-tayi" so'z birikmasining o'rni almashtirib olingan. Baytdagi "سَجَلِ" – "sijl" "yozilgan" so'zi – "سَمَاءِ" "samo" so'zi bilan almashtirilgan. Ya'ni, yanada aniqroq aytganda "السَّمَاءِ كَطِي" – "assama-u ka-tayi" so'z birikmasi "كَطِي السَّمَاءِ" – "ka-tayis-samo" so'z birikmasi shaklida baytga kiritilgan. Lug'atlarda "طِي" – "tayyun"⁴⁸ so'zi taxlamoq, bukmoq, aylantirmoq, o'ramoq kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ana shunday shakldagi Qur'on oyati so'zlarning joyini almashtirgan holda nazmda qo'llanishini Atoulloh Husayniy ta'riflagan *iqtibos* san'atining bir turini⁴⁹ "Gulshan ul-asror"da shoir mana shunday ifodalaydi:

Mahv ko'ngil lavhidin illovu lo,
Tay qilibon pok "Ka-tayyis-samo"

محو کونگول لوحیدین الا ولا
طی قیلیبان پاک کطی السما⁵⁰

Yana ushbu asarning Eron milliy kutubxonasida 13524-raqam bilan saqlanuvchi qo'lyozma nusxada: "Yeru osmondagi xazinalarning barchasi Alloh Taoloniki ekanligidan ochiq-oydin dalildir" mazmunidagi "Munofiqun" surasining 7-oyati quyidagi baytda keltiriladi, boshqa nusxalarda mavjud emas. Bayt:

Lillahi xazoyin us-samovot,
Val-arz bi-avzahid-dalolot.

للہ خزاین السماوات
والارض باوضح الدالات⁵¹

Umuman, hikoyatlarning bir necha o'rinlarida Qur'on oyatlaridan *iqtibos* san'ati vositasida oyati karimadan biror so'z olingan yoki biror qismi olingan. Asar nusxalarida oyatlardan olingan so'zlardagi imloviy farqlar ko'zga tashlanadi.

Uchinchi, "Gulshan ul-asror" baytlari kirgan lug'atlar va miniatyurali qo'lyozma nusxalar tahlili" nomli bobning "Gulshan ul-asror"ning mukammal matnini tiklashda Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlarning ahamiyati" nomli birinchi faslida "Gulshan ul-asror"dan illyustratsiya sifatida

⁴⁶ Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. Qo'lyozma. Fransiya milliy kutubxonasi. Inv. № 978 – B. 34.

⁴⁷ Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима (Абдулазиз Мансур таржимаси). – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2004. – Б. 331.

⁴⁸ Баранов. Х.К. Большой арабско-русский словарь. II том. – М: Живой язык, 2006. – С. 487.

⁴⁹ Атоулло Хусайний. Бадоеъ ус-саноеъ. – Душанбе: Адиб, 1985. – Б. 108.

⁵⁰ Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. Qo'lyozma. Turkiya Ayosofiya kutubxonasi. Inv. № 4757/II. 103a-varaq.

⁵¹ Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. Qo'lyozma. Eron milliy kutubxonasi. Inv. № 13524. 8a-varaq.

qo‘llanilgan baytlardagi turkiy so‘zlar “Abushqa”, “Badoe ul-lug‘at”, “Sanglox”, “Lug‘ati chig‘atoyi ba forsi” va “Lug‘ati atrokiya”da ham bir xil so‘z yoki bir xil baytlardan foydalanmagani tahlili amalga oshirilgan. “Abushqa”da o‘ttizdan ziyod qadimiy turkiy so‘zlarni ko‘rsatishda Mir Haydar Xorazmiyning o‘ttiz uchta baytini misol tariqasida keltirgan, “Sanglox” muallifi o‘ttizga yaqin baytni illiustrativ material sifatida havola qiladi. “Lug‘ati atrokiya”da yigirmaga yaqin so‘z, “Badoe ul-lug‘at” esa faqat bitta baytdagi bir so‘z ko‘rsatilgani “Gulshan ul-asror” so‘z boyligini o‘rganish hamda matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishda lug‘atlarning o‘rni muhim ekanini dalillaydi.

Asarlar matni bilan bir qatorda, ular haqidagi fikrlar qayd etilgan kitoblar ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu manbalarga suyanib til tarixi, adabiyot tarixi hamda adabiyot nazariyasiga oid tadqiqotlar olib boriladi, xulosalar chiqariladi. Natijada ma‘lum tarixiy davr uchun adabiyotning til va uslub xususiyatlari, janrlar taraqqiyoti, hayotni badiiy aks ettirish mezonlari ochila boradi⁵².

Matnshunoslik qo‘lyozma nusxaning matn xususiyatidan tortib (lingvistik, badiiy, falsafiy, tarixiy) nashr ko‘rinishidagi barcha yutuq va kamchiliklari haqida yaxlit tasavvur uyg‘otuvchi tadqiqotni amalga oshiradi⁵³. Shu jihatdan “Gulshan ul-asror” asari manbalarining matnshunoslik sohasi bilan birga tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish asarning o‘z davrida qanday uslub va tilda yozilganligini aniqlashda zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan lug‘atlar asar tanqidiy matnini yanada mukammal yaratish uchun yordamchi manba sanaladi.

Lug‘atshunoslar bir baytning turli so‘zlarini o‘z asarlarida foydalanganlarini ko‘rish mumkin. Masalan,

Abushqa

Turk surudini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolg‘u bila ko‘kla qo‘puz⁵⁴.

ترك سوروديني توزوك بيرلا توز
يخشى آيالغو بيله كوكلا قوپوز

Lug‘ati atrokiya

Turk surudini tuzuk birla tuz,
Yaxshi ayolg‘u bila ko‘kla qo‘puz.

ترك سوروديني توزوك بيرلا توز
يخشى آيالغو بيله كوكلا قوپوز

Ushbu baytdagi so‘zlarni “Abushqa”da “ayolg‘u” – “آيالغو” bilan “ko‘kla” – “كوكلا” so‘zidan foydalangan bo‘lsalar, “Lug‘ati atrokiya”da ushbu baytning “qo‘puz” – “قوپوز” so‘zini lug‘atga kiritgan.

“Abushqa” lug‘atidagi aksar turkiy so‘zlar Alisher Navoiy asarlaridan iqtibos qilingan, ikkinchi o‘rinda Mir Haydar Xorazmiyniki deyish mumkin. Chunki lug‘atda shoirning ikki asari “Gulshan ul-asror” va “Gul va Navro‘z”idan ko‘proq misollar berilgan. Haydar Xorazmiy baytlarini qiyosiy tahlili “Abushqa”da mavjud bo‘lgan ba‘zi bayt va misralar “Gulshan ul-asror” qo‘lyozmalarida o‘z ifodasini topmaganini ko‘rsatadi. Jumladan, “Abushqa”da “qof” harfiga “Qoq” (قاق) so‘zi ishtirok etgan bayt misol tariqasida keltirib, shunday deyiladi: “Qoq” qurumish nasina derlarki Xurosonda va Samarqanda qovun quruturlar soyir meva kabi vaqt

⁵² Хабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2000. – Б. 22.

⁵³ Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирралари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б. 6.

⁵⁴ Веляминов-Зернов В. Абушқа. اللغات النواية والاستشهادات الجغرافية (Ал-луғотун-Навойия вал-истишҳодот ул-чиғотойия). – Петербург: Академия, 1868. – С. 369.

hojatda suv ila asldurlar. Hamul toza qovun kabi o‘lurki, “Maxzan”i Mir Haydarda kelur. Bayt:

Balx elining toqati ham toq edi, بلخ ایلی نینک طاقتی هم طاق ایدی
Borcha qovun hasratidin qoq edi. بارچا قاون حسرتیدین قاق ایدی⁵⁵

“Abushqa”da yana “chim” harfi uchun misol qilib keltirilgan “chiroy” – “چیرای” so‘zi “Maxzan” (“Gulshan ul-asror”)dan ekani” “Va yana “Maxzan”i Mir Haydarda, beshinchi maqola hikoyasinda kelurki misra”, tarzida aytilib, quyidagi misrani havola qiladi:

Bini chiroyi ko‘rguzar bir qori. بینی چیرای کورکوزار بیر قاری⁵⁶

Ammo bunday misra ham asar qo‘lyozma nusxalarida uchramadi. Ushbu hol lug‘at muallifi asarning fanga hali ma‘lum bo‘lmagan nusxasidan foydalangan deyishga asos bo‘ladi.

Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug‘atlardagi bu kabi farqlar ular “Gulshan ul-asror”ning tanqidiy matnini tayyorlashda muhim manba sifatida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

“Asar qo‘lyozmalari uchun ishlangan miniatyuralar – talqiniy manba sifatida” nomli ikkinchi faslida miniatyura sharq kitobat ishini o‘zida mujassam etgan san‘at turlaridan biri ekanligi dalillangan. San‘atning bu ko‘rinishi O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining madaniy taraqqiyot bosqichlarida asrlar davomida sayqallanib kelganligi haqida ma‘lumot beriladi. “Miniatyura – illyustratsiya ko‘proq biror lavhani talqin etsa, *talqiniy miniatyura* esa badiiy asar matnini tushintirish va o‘quvchiga singdirishga xizmat qiladi. Chunki ushbu miniatyuralarda asosiy e‘tibor biror lavhaning o‘ziga emas, balki asarning umumiy g‘oyasiga, uni umumlashtirish, uni ramziylik vositasida ifodalash ustuvor ahamiyat kasb etadi”⁵⁷. Hamid Sulaymonov tomonidan tayyorlangan “Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar”⁵⁸ nomli albom bilan Fransiya Milliy kutubxonasiidagi 978-raqamli qo‘lyozmadagi miniatyuralar qiyosan o‘rganganilganda quyidagilar ma‘lum bo‘ldi: “Alisher Navoiy asarlariga ishlangan rasmlar” nomli albomdagi 195, 196, 197-raqamli miniatyuralar “Lisonut-tayir”ga tegishli bo‘lsa-da 198, 199, 200-raqamli miniatyuralar ham Navoiyning “Lisonut-tayir” asaridagi “Shayx San‘on”ga bag‘ishlangan masnaviysiga oid rasm sifatida mazkur albomga kiritilgan. Bizningcha, bu yanglishishning sababi Navoiyning “Lisonut-tayir” asari bilan Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari bir muqovada ketma-ket joylashtirilib, to‘plam shaklida ishlanganligi uchun bo‘lishi mumkin. Majmuadagi uchta miniatyura Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari uchun ishlanganligini miniatyuralarning hoshiyasiga yozilgan baytlar orqali va ikki manbani solishtirish bilan ayon bo‘ladi.

Dostonlardagi muayyan lavhalarga ishlangan miniatyuralarning, umuman, badiiy asar talqinidagi, muallif g‘oyasini ochishdagi o‘rni kattadir. Haydar

⁵⁵ Веляминов-Зернов В. Абушқа. اللغات النواية والاستشهادات الجغانية (Ал-луғотун-Навойия вал-истишҳодот ул-чиғотойия). – Петербург: Академия, 1868. – С. 323.

⁵⁶ Ko‘rsatilgan manba. – B. 339.

⁵⁷ Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV–XX аср боши). – Тошкент: Тамаддун, 2018. – Б. 231.

⁵⁸ Алишер Навоий асарларига ишланган расмлар. XV–XIX асрлар. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 285.

Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asariga ishlangan rasmlar ham mazmunidan kelib chiqqan holda, matnga mos joyda joylashtirilganligi kuzatishlar mobaynida aniqlandi. Zuxra Rahimova ham “San’at” jurnalining “Тема Любви в суфизме и ее атрибуты в миниатюре Востока” (Tasavvufda ishq mavzusi va Sharq miniatyurasida uning sifatlari) sarlavhali maqolasida Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asari uchun chizilgan rasmni Navoiy asariga ishlangan rasm sifatida talqin qiladi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asari uchun chizilgan miniatyurni “Nasroniy ayol bilan uchrashish”, “Nasroniy ayol shayxni sharob bilan mehmon qilgani”, “Shayx cho‘chqa boqadi” va “Chiroyli nasroniy ayol Shayx San’ondan kechirim so‘raydi” kabi mazmunlar bilan talqin qiladi. Fransiya Milliy kutubxonasidan olingan 978-raqamli nusxadagi “Gulshan ul-asror” asariga taalluqli tasvirlarni maqola muallifi shunday talqin etadi: “Shayx San’on oshiq, nasroniy go‘zalligini ko‘rib hushidan ketib qolishi”; “Muridlarning cho‘chqa boqadigan shayxni ziyorat qilishi”; “Xristian qiz shayxdan kechirim so‘rashi”; “Oshiq bo‘lgan shayx xristian qizini ko‘rib hushidan ketishi”; “Buloq yonida o‘lgan shayx”⁵⁹. Minorskiy nashrga tayyorlagan katalogda Dublindagi Chester Beatty kutubxonasi T433-raqamli qo‘lyozmadagi Mahmud G‘aznaviy hikoyatiga ishlangan rasmni to‘g‘ri talqin qilishga harakat qilgan: 6-rasm: 26a sahifada “Sulton Mahmud G‘aznaviy (Shoh Abbos nomidan vakil) o‘z ozodligini maqtangan darvesh oldida hayratda. Podshohning ikki xizmatkori, biri kamon va o‘q, ikkinchisi otini ushlab turardi”, deyiladi talqinda⁶⁰.

Xulosa shuki, mumtoz asarlar uchun miniatyura chizish an’anasi biror shaxsning buyrug‘iga binoan yoki hukmdorlarning buyrug‘iga asosan chizilgan. Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” asariga chizilgan miniatyurani xato talqin qilinishi, bizningcha, tadqiqotchilarning biroz e’tiborsizligi sababidan bo‘lishi mumkin.

“Miniatyuralar va ularning matni asar hikoyalari mazmunini ochiqdashdagi o‘rni” nomli uchinchi faslida qo‘lyozmalardagi miniatyuralarni matn bilan qiyoslash orqali asardagi ba’zi tushinishi qiyin bo‘lgan so‘zlarga aniqlik kiritish imkonini berishi yuzasidan xulosalar bildirildi. Miniatyurali baytlar mazmuniga mosligi qiyoslandi. Tahlillar jarayonida ba’zi miniatyuralar matndan farq qilish jihatlari ko‘zga tashlandi. Miniatyurasi bor manbalar:

1) <https://me/TURKANXORASAN/> ترکان خراسان telegram kanalidan Amerikaning Texas tarixiy muzeyidagi “Gulshan ul-asror” asari qo‘lyozmasida 7 ta miniatyura borligi aniqlandi.

2) <https://me/TURKANXORASAN/> ترکان خراسان telegram kanalidan To‘pqopi saroyida saqlanuvchi qo‘lyozma nusxasida 7 ta miniatyura borligi aniqlandi.

3) Irlandiyaning Dublin shahridagi Chester Beatty kutubxonasida № T433-raqamli arxivda ro‘yxatdan o‘tgan qo‘lyozma nusxada 8 ta miniatyura bor. 30a – varag‘i oxirgi miniatyura nusxasining Safaviy shoh, Shoh Abbosga (1587–1636)

⁵⁹ Qarang: Рагимова З. Тема любви в суфизме и её атрибуты в миниатюре Востока // САНЪАТ. 01/07/2009 № 3, 4270.

⁶⁰ Minorsky V. The Chester Beatty Library A Catalogue of the Turkish. Manuscripts and Miniatures. – Dublin: HODGĖS FIGGIS & CO. LTD, 1958. – P. 56–57.

taqdim etilgan bo‘lishi mumkin degan taxminlar mavjud. Miniaturada tasvirlangan yigit nusxaning muallifi yoki egasi bo‘lishi mumkin⁶¹.

Miniatyurali qo‘lyozmada Yaqub payg‘ambar hikoyatiga 2 ta, Sulaymon payg‘ambar hikoyatiga 2 ta, Mahmud G‘aznaviyga hikoyatiga oid 6 ta, “Temurxon hikoyati”ga bag‘ishlangan 3 ta, “Xotimat ul-kitob”ga 2 ta, “Bazzoz va bo‘z sotuvchi kampir” haqidagi hikoyatiga 6 ta, “Xotam Toyi” hikoyatiga 4 ta, “Bahluli mast hikoyati”ni tasvirlashga oid 3 ta, “Kitob muallifi haqidagi” faslga 2 ta miniatyura mavjud. Bunday miniatyuralar asar talqini uchun muhim manba bo‘la oladi. Tadqiqotda miniatyuralarda keltirilgan baytlar matnini bir biridan farqli va o‘xshash jihatlari tahlil qilinadi. Masalan, Amir Temur hikoyati uchun chizilgan miniatyura hoshiyasidagi baytlarda “yormonib” – “يارمانيب” degan so‘z bor. Ushbu so‘z turli manbalarda turlicha yozilgan. Qozon bosmada “tirmanib” – “تيرمانيب” Britaniya nusxasida “yormonib” – “يارمنيب” shaklidagi so‘zni B. Ahmedovning “Amir Temur haqida hikoyalar”ida “tirishib-tirmashmasin” shaklida ifodalangan⁶². Hozirgi o‘zbek tilida ham “tirmashmoq” ma’nosini bildiradi va shu shaklda yoziladi.

چىقىدى ياريم يولغە ياپوشقونچە تىند

Chiqdi yorim yo‘lg‘a yopushquncha tund

misrasidagi “yopushquncha” – “ياپوشقونچە” so‘zi Britaniya nusxasida “yovushg‘uncha” – “ياووشغونچە”, Qozon bosmada “degin tez” – “ديگين تيز” shaklida yozilgan.

Hikoyatlar uchun chizilgan miniatyuralar va ularning hoshiyasidagi matnlar “Gulshan ul-asror” asarini to‘liq tasavvur qilishda va matnni qayta tiklashda zaruriy manba bo‘ladi. Sababi barcha qo‘lyozma nusxalarni jamlashning imkoniyati yo‘q. Miniatyuralar matni yordamida farqlarni aniqlash taniqliq matnni tuzishda ahamiyatlidir.

To‘rtinchi bob “Maxzan ul-asror” turkumidagi masnaviylar va “Gulshan ul-asror” tarkibi qiyosi” deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli “Maxzan ul-asror”ga tatabbu’ qilingan asarlar va “Gulshan ul-asror” hikoyatlarida hamd va madhlar tekstologiyasi”ga bag‘ishlangan. Nizomiyning “Maxzan ul-asror”iga javoban yuzga yaqin ijodkorlar tatabbu’ yozganlarning aksariyati o‘z asarlariga bir xil vazndagi nom bilan nomlaganlar: “Matla ul-anvor”, “Ravzat ul-anvor”, “Mashhad ul-anvor”, “Mazhar ul-asror”, “Tuhfat ul-ahror”, “Manzarul-anzor”, “Matmah ul-anvor”, “Manzar ul-afzor”, “Majma’ ul-abkor”, “Zubdat ul-afkor”, “Markaz ul-advor”, “Gulshan ul-asror” qofiyalangani kabi asarlar borligi haqida aytib, ularning ba’zilar haqida tavsif ham keltirib o‘tadi.

Nizomiyning “Maxzan ul-asror” asariga Eron va hind ijodkorlari ham o‘n beshga yaqin shoirlarning tatabbu’ yo‘zanligini manbalardan ma’lum⁶³. Usmonli turk adabiyotida ham bir qator naziralar yozilgan: Ahmad Ridvan “Maxzan ul-asror”, Ahmad Xayoliy “Ravzat ul-anvor”, Jinoniy “Ravzat ul-jinon”, Jaloliddin

⁶¹ Minorsky V. The Chester Beatty Library A Catalogue of the Turkish. Manuscripts and Miniatures. – Dublin: HODGES FIGGIS & CO. LTD, 1958. – P. 56–57.

⁶² Ахмедов. Б. Амир Темур хақида хикоялар. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б 45.

⁶³ Qarang: Şentürk A. Atilla ve Ahmet Kartal. Eski Türk Edebiyatı Tarihi. – İstanbul: Dergah Yayınları, 2008. – S. 75.

Ali “Tuhfat ul-ushshoq”, Toshlijali Yahyo “Gulshan ul-anvor”, Bursali Rahmiy “Guli Sadbarg”, Azeri Ibrohim Chalabiy “Naqshi hayol”, Hilmiy “Bahri kamol, Navizoda Atoyi “Nafhat ul-azhor”, Naliy “Tuhfat ul-imsol” kabi o‘nlab naziralar bitilgan⁶⁴. Som Mirzo Safaviy “Tuhfai Somiy” asarida ham “Maxzan ul-asror”ga tatabbu’ yozgan shoirlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Qozi Sinjoniy “Maxzan ul-asror”ga tatabbu’ bo‘lgan “Manzar ul-absor” asarini Amir Alisherning nomiga bag‘ishlab nazm silkiga tortgan edi. Xoja Osafiy “Maxzan ul-asror” tarzida bitta masnaviy aytgan, lekin mashhurlik topmagan. Mavlono Nargisiy Iroq Abharining shayxzodalaridan. “Maxzan ul-asror”ga javob aytgan. Abulato Mullo Mahmud. Shayx A’loiddin Simnoniyning muridi va Sulton Abu Sa’idxonning maddohi bo‘lgan. Shayx Sa’diyning zamondoshi. Devon sohibi. “Ravzat ul-anvor” masnaviysini “Maxzan ul-asror”ga javob tarzida aytgan. Mullo Husayn Voizning “Axloqi karima”, “Axloqi Husayniy”, “Anvori Suhayliy”, “Lubbi lubob”, “Tafsiri Husayniy” va “Maxzani insho” kabi asarlari bor. Zayniddin Mas’ud Ali Isloh Isfahoniyni o‘g‘lidir. Nizomiyni “Maxzani asror”i barobarida masnaviy yozgan. Mullo Vahshiyning uchta masnaviysi bor. Bittasi “Maxzani asror” bahrida bo‘lib, “Xuldi barin” nomli⁶⁵.

O‘z salaflariga ana shunday tatabbu’lar yozgan ijodkorlardan biri “XIV asrda turkiygo‘y (turkiy tilda gapiruvchi) deb atalgan Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror”ni *nazira* sifatida turkiy tilda yozgan birinchi shoir hisoblanadi”.⁶⁶ Ushbu faslda Nizomiy Ganjaviy, Haydar Xorazmiy va Alisher Navoiy o‘z asarlarida “So‘z” ta’rifini o‘ziga xos tarzda ifodalashga harakat qilganlarini qiyosan o‘rganilgan. Ularning ba’zilari Qur’on oyatlariga ishora qiluvchi baytlar ijod qilishgan bo‘lsa, boshqaasi aynan iqtibos qilganlarini ko‘rish mumkin. Islomshunos olim Shamsiddin Boboxonov “Qur’on va o‘zbek adabiyoti” nomli kitobida shunday deydi: “Qur’oni mavzularning jahon va, xususan, o‘zbek adabiyotiga singib ketishini o‘rganish faqat diniy nuqtayi nazardan iborat bo‘lib qolmay, balki sharq adabiyotining, xususan, o‘zbek adabiyotining ham biz uchun mavhum qirralarini oydinlashtirib, hozirgi o‘zbek adabiyotining shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad beradi”⁶⁷.

Umuman, mazkur ijodkorlarning asarlarida Qur’oni Karimdagi “Bo‘l!” “كُنْ!” deya bir “so‘z” bilan butun olam yaralganligi haqidagi “Yosin” surasi 82-oyatini turli xil badiiy san’atlar vositasida ifoda qilganlaridan dalolat beradi.

“Gulshan ul-asror”, “Hayrat ul-abror” va “Majma’ ul-axbor” asarlarida “karam” va “buxl” sifatlari va ularning matniy qiyosi nomli faslida insonning farishtalardan ham yuqori darajada ekanligini Qur’oni Karimning bir necha oyati karimalarda aytilgan, insonning eng yaxshi sifatlaridan biri “saxiylik” bo‘lsa, yomon ko‘rilgan sifatlardan biri “baxillik” ekanligi “Gulshan ul-asror”, “Hayrat ul-abror” va “Majma’ ul-axbor” asarlari matlarining qiyosida ko‘risatilgan.

⁶⁴ Qarang: Mahmut Kaplan. Nizâmi’nin Mahzenü’l-esrâr’ina osmanli coğrafyasında türkçe yazılan nazire ve cevaplara dair. Köprü . Sayı: 146–147. Mayıs-Aralık 2020. ISSN: 1300–7785. – S. 67–84.

⁶⁵ Qarang: Som Mirzo Safaviy. Tuhfai Somiy. Qo‘lyozma. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. Inv. № 4377.

⁶⁶ Türkîe Diyanet Vakfî Yayınları. İslâm Ansiklopedisi. C. 38. – İstanbul: TDV, 2010. – S. 184.

⁶⁷ Qarang: Кароматов Х. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 3.

“Gulshan ul-asror”ning insonning ulug‘ darajasi, masnadini ifodalovchi fasli asarning turli nusxalarida turli xil nomlar bilan sarlavha berilgan. Masalan, Britaniya kutubxonasidagi nusxada “Hikoyat”, Eron milliy kutubxonasidagi qo‘lyozma nusxasida “So‘z boshi” – “سوز باشی” deb masnaviyning nomi aniq berilmagan bo‘lsa, Turkiyaning To‘pqopi saroy kutubxonasida saqlanuvchi qo‘lyozmada “Tengri Taoloning sun‘ida” – “تنگری تعالینینگ صنعده” (“Tangri Taoloning yaratuvchilik sifati”), Turkiya Sulaymoniya kutubxonasining Ayosofiya bo‘limida saqlanuvchi uyg‘ur-arab yozuvli qo‘lyozmada “Dar martabai inson” – “در مرتبه انسان” (“Inson martabasi”) deb nomlangan⁶⁸.

“Nizomiy hayotda nima muqaddasu, nima fahsh, inson nimaga intilmog‘i, nimani rad qilmog‘i kerak degan savollarni o‘rtaga qo‘yar ekan, bu savollarga javob berishda Qur‘on suralariga murojaat qiladi, hadislarni asos qilib oladi, o‘zining uzoq yillik hayotiy kuzatishlaridan kelib chiqadi”⁶⁹. Xuddi shu fikrni Haydar Xorazmiy, Alisher Navoiy, Sayyid Qosimiy va Komron Mirzo asarlari misolida ko‘rish mumkin.

Har bir ijodkor asarlarida matnida saxiylik va baxillik sifatlari o‘ziga xos tarzda talqin qilingan. Saxiylik va baxillik sifatlari matniy qiyosiy tadqiqidan ko‘rinishicha, shoirlar bu sifatlarni Qur‘oni Karim oyatlari va hadisi sharif ko‘rsatmalariga asosan tasvirlashga harakat qilganlar.

Bobning **“Hikoyatlar matnida tarixiy shaxslar ifodasi”** faslida “Gulshan ul-asror”dagi tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan hikoyalar tahlil qilingan. Asarda ba’zi tarixiy shaxslarga alohida hikoyat yozilgan bo‘lsa, ba’zilarining faqat nomi keltirilgan. Jumladan, payg‘ambarlar: Nuh, Yusuf, Ibrohim, Muso va Muhammad alayhissalom, Sulaymon payg‘ambarning vaziri Osaf Barhayo, Horun ar-Rashid, Hotami Toyi, Nizomiy Ganjaviy kabilarning ismi asarda keltirilgan. Hazrat Ali, Bahluli dono, Sulton Iskandar, Mahmud G‘aznaviy, Amir Temurlar uchun alohida hikoyatlar yozilgan. Faslda mazkur besh tarixiy shaxsning hikoyatlardagi ta’rifi va boshqa manbalar matni bilan o‘xshash va farqli tomonlari o‘rganilgan.

Ko‘pchilik ijodkorlarga a’naviy usulda bo‘lgan to‘rt xalifa (Chor yorlar)ga bag‘ishlab masnaviyalar bitilgan. Ammo Haydar Xorazmiy asarida to‘rt halifadan faqat Ali roziyallohu anhuga bag‘ishlab hikoyat yozgan. Faqatgina hazrat Aliga bag‘ishlab madh yozganligini Benedek Péri maqolasida talqin qilingan⁷⁰. Iskandar Sultonni o‘z asarida madh etishini o‘sha davr an’anasi bilan izohlash mumkin. Chunki o‘tmishda har qanday ijodkor o‘z hokimi, o‘z sultonini yoki asar yozishga ruhlantirgan kishini qoidaga ko‘ra madh etmasdan, tilga olmasdan asar yozishi mumkin emas edi.

Mahmud G‘aznaviy obrazini tasvirlash uchun ijodkorlar juda ko‘p marotaba ushbu obrazdan foydalanganlar. Birgina Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonida Sulton Mahmud haqida 12 ta hikoyat mavjud⁷¹. Haydar Xorazmiyning

⁶⁸ Ayet Abdulaziz Goca. Haydar Tilbe‘nin Mahzenu‘l esrar mesnevisi. – Istanbul, 2000. – S. 280.

⁶⁹ Эркинов С., Ганихонов М. Низомий Ганжавий. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 21.

⁷⁰ Qarang: Benedek Péri. Haydar H̄v̄arizmī “Maḥzana l-asrār”. Library and Information Centre of the Hungarian Academy of Sciences, 2020. – S. 29.

⁷¹ Qarang: Давлатов О. Алишер Навоий шеърлятида Куръон оятлари ва хадисларнинг бадий талқини. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Самарқанд, 2017. – Б. 93.

Mahmud G‘aznaviyga bag‘ishlangan hikoyati ham tasavvufiy ruhda yozilgan asarlardan biri hisoblanadi.

Bahlul ham Nasriddin Xoja kabi “ko‘p kuluvchi, ijobiy xususiyatlarini o‘zida jam qilgan kishi sifatida tasvirlanadi”⁷². Bu forscha so‘z bo‘lib, “sof” ma’nosini bildiradi. Vasvasadan mag‘lub bo‘lgan, aql nuri qisman yoki to‘liq yonib ketgan odam. Bunga Horun Rashidning ukasi Bahlul dono misol bo‘la oladi. Bunday odamlar aslida aqldan ozishmaydi. Ularning ogohlantiruvchi hikmatga to‘la iboralari ko‘p. Masalan, “uqala-i majaniyn” – “aqillilar majuni”,- deyiladi⁷³. Chunki, tasavvuf tushunchasiga ko‘ra bu unvon Allohning ishqi tufayli majnun bo‘lgan so‘fiylarga berilgan unvon.

Tojik milliy ensiklopediyasida Bahluli dono haqidagi asarlar haqida ma’lumot berilgan: Sanoiyning “Hadiqat ul-haqiqa”, Farididdin Attorning “Musibatnoma”, “Asrornoma”, Avfiyning “Javome ul-hikoyot va lavame ur-rivayot”, Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy”sida hikoya va latifalar, Abdurahmoni Jomiyning “Bahoriston”i va boshqalar. O‘rta Osiyoning tojik tilida so‘zlashuvchi xalqlari orasidan qo‘lga kiritilgan folklor materiallariga ko‘ra, Bahlul haqidagi latifalar va hikoyatlar Kurdiston va Eron aholisi orasida ham mashhur. Eronda haftalik “Bahlul” gazetasi chiqadi; “Bahlul: telba zukko” (1343-hijriy), “Sane Bahlul” (1372-hijriy), “Hikmatli Bahlulning shirin latifalari va qissalari” (1372-hijriy), “Bahlul qissalari” (1376-h. sh.) nomli to‘plamlar va boshqalar nashr etilgan bor tojiklar orasida Bahlul nomi afsonada, latifada va ko‘plab hikoyalar mavjud⁷⁴.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Ajoib al-maqdir fi tarixi Temur” (“Temur haqidagi taqdir ajoyibotlari”) asarlari Amir Temurning harbiy yurishlariga bag‘ishlangan bo‘lsa, Shayx Mahmud Zangiyning “Jo‘shu Xurush”i nazmda, Xrestofor Morloning “Buyuk Temur” nomli sahna asarlari ham Sohibqiron Temurbek vafotidan keyin yozilgan. Lekin turkiy tilda yozilgan Mavlono Haydar Xorazmiyning “Temurbek haqida hikoyat”i hali Temurbek hayotlik davrida Iskandar Mirzo Sherozda hukmronlik qilgan davrlardayoq yozilgan birinchi badiiy asardir.

XULOSA

1. Haydar Xorazmiydan bizgacha Nizomiyning “Maxzan ul-asror”iga nazira tariqasida yozilgan “Gulshan ul-asror”, “Gul va Navro‘z”, Muhammad alayhissalomning me’roj voqeasiga bag‘ishlangan “Me’rojnoma”si hamda Mirzo Ulug‘bekka atalgan bitta turkiy tildagi qasidalarini yetib kelgan.

2. “Gulshan ul-asror” Nizomiyning “Maxzan ul-asror” asariga javob tariqasida turkiy tilda yozilgan birinchi asardir. Asar muallifi noma’lum “Abushqa”, Tole al-Imoniy al-Haraviyning “Badoe’ ul-lug‘at”, Muhammad Mahdiyxonning “Sanglox”, Fathali ibn Kalbali ibn Murshidquli ibn Fathali Qojor Qazviniyning “Lug‘ati atrokiya”, Nazar Alining “Lug‘ati Chig‘atoyi ba forsiy” kabi lug‘atlarida “Maxzan ul-

⁷² Баранов Х.К. Большой арабско-русский словарь. I том. – М.: Живой язык, 2006. – С. 89.

⁷³ Ethem Cebecioğlu. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. – İstanbul: Kalem yayınevi, tarixsiz. – S. 47.

⁷⁴ Энциклопедияи Миллии Тоҷик. Ҷилди-2. – Душанбе: Сарредаксияи Энциклопедияи Миллии Тоҷик, 2013. – С. 409.

asror” nomi bilan bergan. “Gulshan al-asror” qo‘lyozmalari, lug‘atlar va asarga oid qaydlar uchraydigan manbalarda muallif nomi Mir Haydar, Haydar telba, Mavlono Haydar, Mavlono Abdul Haydar Xorazmiy kabi shakllarda ko‘rsatib kelingan. Shu bois, A. Pave De Kurteyl, I. Godvald, I. Beryozin kabi olimlarning tadqiqotlarida muallif masalasiga turlicha yondashuv yuzaga kelgan. “Gulshan ul-asror”ga oid tadqiqotlarda asar “Maxzan ul-asror” deb nomlagan va Nizomiyning shu momli masnaviysining tarjimasi deb xulosa qilishlariga sabab bo‘lgan.

3. “Gulshan ul-asror”ning Britaniya kutubxonasi 7914/IV-raqamli, Istanbuldagi To‘pqopi saroy muzeyi 1460-raqamli, Parijdagi Fransiya Milliy kutubxonasi 978-raqamli, Eron milliy kutubxonasi 13524-raqamli, Vengriya milliy kutubxonasi 0.81-raqamli qo‘lyozmalar, shuningdek, Qozon bosma nusxalar asosida matniy qiyosi amalga oshirildi. Qiyosiy tadqiq asar qo‘lyozma nusxalarida hikoyatlarning joylashuv o‘rni turli nusxalarda turlicha ekanini ko‘rsatdi. Masalan, bir nusxada so‘z boshi asar oxirida kelsa, so‘nggi so‘z asar o‘rtasida kelgan. Bulardan tashqari hikoyatlar va baytlarning o‘rin almashgani, ortgan yoki kamaygan hollari uchraydi.

4. “Gulshan ul-asror”ning birinchi bosma nashrlari XIX asrda yevropalik olimlar I. Beryozin (1857), I. Gotvald (1858), P. De Kurteyli (1882) tomonidan arab alifbosida amalga oshirilgan. XX asrda o‘zbekistonlik olimlar: Hodi Zarif (1948), Olimjon Jo‘rayev (1982, 1987, 1990), Muhammad Ali, Begali Qosimov, Ra‘no Nurmatovalar (1986) kirill yozuvida. Turkiyalik olimlar: Reshid Rahmatiy (1963), Abdulaziz Xoja (2000), Avni Go‘zo‘tok (2008) lar tomonidan turk tilida nashr qilindi. Biroq nashrlar muallif matniga yaqin matnga tayanmagani bois to‘liq bo‘lmay, ular asar yuzasidan to‘liq tasavvur bermaydi.

5. “Gulshan ul-asror”ning Turkiya (4 ta), Amerika (1 ta), Fransiya (1 ta), Vengriya (1 ta), Britaniya (2 ta), Irlandiya (1 ta), Avstriya (1ta), Germaniya (1ta), Hindiston (1ta), Tatariston (2 ta), Eron (2 ta), Gruziya (1 ta), Kanada (1 ta), O‘zbekiston (fotokopiya) (1ta) fondlari saqlanayotgan arab yozuvidagi yigirmadan ziyod qo‘lyozma nusxasi borligi aniqlandi. Shuningdek, Berlin davlat kutubxonasi (Staatsbibliothek zu Berlin), Istanbul universiteti kutubxonalaridagi uyg‘ur va Sulaymoniya kutubxonasining Ayosofiya bo‘limida uyg‘ur-arab yozuvidagi qo‘lyozma nusxalari saqlanadi.

6. Ilmiy-tanqidiy matnni tuzish uchun Eron milliy kutubxonasida saqlanuvchi 13524, To‘pqopi saroyi kutubxonasidagi 1460, As‘ad afandi kutubxonasidagi 2578, Ayosofiya kutubxonasidagi 4757/II, Ali Amiriy kutubxonasi to‘plamidagi 951, Britaniya kutubxonasidagi 7914/IV, Budapesht kutubxonasidagi O.81, Nyu-Yorkning Spenser majmuasi kutubxonasidagi 41, Qozon davlat universitetiing ilmiy kutubxonasidagi toshbosma holatda 1858-yil Iosif Gotvald nashr qildirgan nusxalar jalb qilindi. Fransiya milliy kutubxonasida saqlanuvchi 978-raqamli qo‘lyozma ilmiy-tanqidiy matnni tuzish uchun tayanch nusxa sifatida tanlandi.

7. Yigirmadan ziyod nusxalarning barchasida asar nomi “Maxzan ul-asror” shaklida, faqatgina XIX asrda bitilgan va Professor Hamid Sulaymonov tomonidan aniqlangan, Hindistonning Sirinagar muzeyida 700-inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxagina “Gulshan ul-asror” deb nomlangan. Bobur “Muxtasar” risolasida Haydar Xorazmiy dostonini ilk bor “Gulshan ul-asror” tarzida qayd qilgan. Bobur asar nomini “Gulshan ul-asror” deb ko‘rsatishiga fanga hali ma‘lum bo‘lmagan

qo'lyozma nusxasi yoki asarning shunday nomga egaligi haqida ma'lumot beruvchi manba asos bo'lgan.

8. Diniy-ma'rifiy mazmundagi "Me'rojnom" asari "Me'rojnom" turkumida bitilgan turkiy tildagi ilk asarlardan. Hozirgacha ma'lum bo'lgan "Me'rojnom" qo'lyozmalarda asarning muallifi aniq keltirilmagan. Asarning so'nggi yillardagi aniqlangan qo'lyozma nusxalari asosidagi xulosalar uning muallifi Haydar Xorazmiy ekanini ko'rsatadi.

9. Sakkokiyning Mirzo Ulug'bekka atab yozgan qasidasidan ta'sirlanib, Haydar Xorazmiy va Shayx Abdurazzoq Baxshilar qasida yozganlar. Ba'zi o'rinlarda Haydar Xorazmiyning baytini hech o'zgarishsiz Shayxzoda Aburazzoq Baxshi o'z masnaviysiga tazmin tarzida keltirgan. Bunday holatning bo'lishi, bizningcha Shayxzoda Abdurazzoq Baxshining Haydar Xorazmiy ijodiga hurmat ma'nosida deb hisoblash mumkin.

10. Haydar Xorazmiyning Mirzo Ulug'bekka bag'ishlangan qasidasida "Sakka" so'zi "yo'l" ma'nosida qo'llanilgan. "Musharraf sakka" so'z birikmasi "Sharafli yo'l" mazmunini ifodalab, Sakkokiy taxallusini ulug'lash ma'nosidadir. Yana bir ma'nosi "Musharraf sikka" – "sharafli muhr", "xutba muzayya" – "masjidda juma va hayt kunlari xutba o'qiladigan joy" ma'nolarida. Ya'ni Mirzo Ulug'bek shohlik taxtiga o'tirgandan keyin, unga atab muhr tayyorlangani yoki tanga zarb qilinganiga ishora qilinib, juma kuni xutbada shohning sha'ni uchun maqto'vlar aytiladi.

11. Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lug'atlarda lug'atshunoslar Mir Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" asaridan ham foydalanganlar. Ularning ichida eng ko'p foydalanganini "Abushqa" va "Sanglox" deyish mumkin, bulardan keyin "Lug'ati atrokiya"da va "Badoe ul-lug'at"da esa faqat bitta baytdagi bir so'zni qo'llagan.

12. "Abushqa" va "Lug'ati atrokiya"larning so'zligi bir xil bo'lsada "Lug'ati atrokiya"da "Abushqa"ga qaraganda kamroq so'zlar kiritilgan. Ammo "Sanglox"ning o'ziga xos jihati shuki, unga bu ikki lug'atga ham kiritilmay qolgan bayt va so'zlar bor. "Gulshan ul-asror"dan misol sifatida qo'llangan baytlardagi turkiycha so'zlarni to'rt lug'atda ham bir xil so'z yoki bir xil baytlardan foydalanmaganlar. Ammo ba'zi o'rinlarda bir baytdagi ikki xil so'zni o'z lug'atiga kiritgan holatlar ham mavjud. Yana ba'zi o'rinlarda bir baytdagi bir so'zni turli shakllarda ifodalanganligini ham kuzatish mumkin.

13. "Abushqa" nomli lug'atda qadimiy turkiycha so'zlar hazrat Alisher Navoiydan keyingi o'rinda Haydar Xorazmiy asarlaridan keltirilgan misollar hisoblanadi. Haydar Xorazmiy baytlarini qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki "Abushqa"da mavjud bo'lgan ba'zi baytlar "Gulshan ul-asror" qo'lyozmalarida uchramaydi. Yana ikki manbaning so'zma-so'z qiyosida ham farqlarning mavjudligi ko'zga tashlanadi.

14. "Gulshan ul-asror" asari qo'lyozmalari ichida bir nechta miniatyurali nusxalari ham mavjud. Ushbu miniatyuralar: 1) Xyustonning Texas kutubxonasi saqlanuvchi qo'lyozmada (raqami noma'lum) 8 ta; 2) Turkiyaning Ali Amiriy to'plamida 951-raqamli qo'lyozmada 9 ta; 3) Turkiyaning To'pqqopi saroyida saqlanuvchi qo'lyozmada (raqami noma'lum) 7 ta; 4) Dublindagi Chester Beatty kutubxonasida T 433-raqamli qo'lyozmada 8 ta; 5) Nyu-Yorkning Spenser Soll

jamoat kutubxonasida 41-raqamli qo‘lyozmada 1 ta; 6) Fransiya milliy kutubxonadi 978-raqamli qo‘lyozmada 3 ta. Shuningdek, Britaniya kutubxonasi Or. 3491-raqamli arxivda ro‘yxatga olingan nusxada 6 ta miniatyura mavjud. Miniaturalar hikoyatlar mazmunini talqin qilishda katta ahamiyatga ega bo‘lsa, ularning hoshiyalariga yozilgan matnlar tanqidiy matnni yaratishdagi o‘rni katta. Miniaturalarni nafaqat talqiniy manba sifatida foydalanishimiz mumkin, balki ularning hoshiyasidagi hikoyatlar matnlaridan parchalar tanqidiy matnni tuzish uchun zaruriy manba sanaladi. “Gulshan ul-asror”ning miniatyurali nusxalari o‘sha davr adabiyotida miniatyura san’atining ahamiyatini belgilashda ahamiyatlidir. Shuningdek, surat va matn qiyosi ba’zi tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarga aniqlik kiritish imkonini beradi.

15. Nizomiy va Haydar Xorazmiylar asarining matniy qiyosi “Gulshan ul-asror” tarjima emas, balki mustaqil asar ekanini ko‘rsatadi. Nizomiy “Maxzan ul-asror” dostoni “Alloh taolaga 2 ta munojot. Rasuli akram sallollohu alayhi vassallam vasfi. Me’roj va 4 ta na’t. Malik Faxruddin Bahromshoh ibni Dovud madhi. So‘z fazilati bayoni. Manzum so‘zning mansurdan afzalligi. Shuningdek, 20 maqolot, 20 hikoyat va xotimadan”dan iborat bo‘lib ular quyidagicha nomlanadilar: 1. “Noumid va gunohi o‘tilgan podshoh haqida hikoyat”. 2. “No‘shiravon odilning ovdagi ko‘rgan voqeasi haqida (No‘shiravon va uning vaziri) hikoyat”. 3. “Sulaymon payg‘ambar (va dehqon) haqida hikoyat”. 4. “Sulton Sanjar va mazlum kampir haqida doston”. 5. “Mevafurush va o‘g‘ri tulki haqida hikoyat. 6. Sayyod, it va tulki haqida (doston) hikoyat”. 7. “G‘isht quyuvchi chol haqida (doston) hikoyat”. 8. “Faridunning ohu shikorgohidagi voqeasi haqida doston-hikoyat”. 9. “Tavba qilgan zohid haqida hikoyat”. 10. “Iso alayhissalom haqida hikoyat”. 11. “Mubid chol haqida hikoyat”. 12. “Ikki hakim munozarasi haqida hikoyat”. 13. “Xoin so‘fi va Hoji haqida hikoyat”. 14. “Zolim podshoh va rostgo‘y Zohid haqida hikoyat”. 15. “Yosh shahzodaning eski dushmanlari haqida hikoyat”. 16. “Majruh bo‘lgan go‘dak hikoyati”. 17. “Pir va murid haqida doston-hikoyat”. 18. “Jamshid va uning yaqinlari haqida hikoyat”. 19. “Xalifa va sartarosh haqida hikoyat”. 20. “Bulbul va burgut hikoyat”dan iborat (Jami 2260 baytdan oshiqroq).

